

BOBUR KUTUBXONASI

MA'NAVIY - MA'RIFIY JURNAL · ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ



2/2025

ISSN 2181-3280



- ▶ 4-bet G'alaba taqvimi
- ▶ 13-bet Italiyaning Andijonlik qahramoni
- ▶ 18-bet Я расскажу о своем отце
- ▶ 25-bet XXI-asr yoshlarini kitobxonlikka jalb etish
- ▶ 29-bet Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning ahamiyati, talablari va usullari

Xalqimizning jasorati va matonati haqida soʻzlovchi kitoblar



«Oʻzbekiston qahramonlarining bugungi kunda idrok etilishi xotira translatsiyasi (uzatilishi) psixologik fenomeni bilan bogʻliqdir. Bu — maʼnaviy meʼyorlarni, mardlik va mehnatsevarlik namunasini yangi avlodlarga saqlash va yetkazishdir».

Nargiza Qosimova,
professor, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.
«Bobur kutubxonasi» jurnali tahririyat hayʼati aʼzosi



Axborot-kutubxona markazi tomonidan
2022 yildan nashr qilinmoqda.

Har chorakda chop etiladi
-o'zbek, rus va ingliz tilida

Tahrir kengashining raisi

G.Ismailova

Muharrir

O.Axunjanova

Texnik muharrir

I.Muxtarov

Kengash a'zolari

U.Teshabayeva - tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)


N.Kosimova - professor, psixologiya fanlari
nomzodi, dotsent.

B.Yarkinova - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent.

S.Mamajonov - tarix fanlar nomzodi, dotsent



**Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot-kutubxona markazi**



Духовно-просветительский журнал

Издаётся Андижанским областным инфор-
мационно - библиотечным центром имени
Бабура с 2022 года

Выходит ежеквартально
на узбекском, русском, английском языках.

Председатель редакционного Совета

Г.Исмаилова

Редактор

О.Ахунжанова

Технический редактор

И.Мухтаров

Члены Совета

У.Тешабаева — доктор философских наук
по истории (PhD)

Н. Косимова — профессор, кандидат
психологических наук, доцент.

Б. Яркинова — кандидат филологических
наук, доцент.

С.Мамажонов - кандидат исторических
наук, доцент.

MUNDARIJA

G'ALABANING 80 YILLIGIGA

G'alaba taqvimi..... 4

Shoxidaxon Shokirova

Italiyaning andijonlik qahramoni..... 13

Анна Терехова

Я расскажу о своем отце..... 18

Лилия Ильчук

Мы помним! Мы гордимся!..... 20

Ahunjanova Olga

Axunjanov Yusup..... 22

KITOBXON NIGOHIDA

Robiya Sohibjonova

Yoshlar uchun ilm va ijod maskani..... 23

Xolidaxon Qodirova

XXI-asr yoshlarini kitobxonlikka jalb etish 25

USLUBCHI MASLAXATI

Dilafruz Karimova

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning ahamiyati, umumiy talablari va usullari..... 29

MASHXUR YOZUVCHILAR

Qalam ahli ustozlari..... 39

O'LKAMIZ IJODKORI

Z.Shahobitdinova

Iste'dotning betakror qirralari..... 42

TAQDIR VA ODAMLAR

Zebo Asronova

Izlari ko'zimga to'tiyo..... 45

Jurnal 2021 yil 17 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 1212 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda «Bobur kutubxonasi» ma'naviy-ma'rifiy jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Bosmaxonaga 16.06.2025 yilda berildi.
Bosishga 23.06.2025 yilda ruxsat berildi.
Qog'oz formati 60x84 1/8.
Nashriyot hisob tabog'i 6,5.
Adadi 50 dona.

Jurnal «BIZNES POLIGRAF» M.CH.J bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani
Katta qozirobod 65-uy.
Tel: +99891 135-76-73

ALOQA UCHUN MA'LUMOT:

Manzil: Andijon sh.,
A.Fitrat ko'chasi, 232-uy.
Tel.: 74-223-79-80
Veb-sayt: jurnal.libbobur.uz
Telegram: t.me/andakmbot
Veb sayt: andijan.natlib.uz



XOTIRA ABADIY



Подписание акта о безоговорочной капитуляции германских вооружённых сил

АКТ О ВОЕННОЙ КАПИТУЛЯЦИИ

1. Мы, нижеподписавшиеся, действуя от имени Германского Верховного Командования, соглашаемся на безоговорочную капитуляцию всех наших вооружённых сил на суше, на море и в воздухе, а также всех сил, находящихся в настоящее время под немецким командованием, — Верховному Главнокомандованию Красной Армии и одновременно Верховному Командованию Союзных экспедиционных сил.

2. Германское Верховное Командование немедленно издаст приказы всем немецким командующим сухопутными, морскими и воздушными силами и всем силам, находящимся под германским командованием, прекратить военные действия в 23:01 часа по центрально-европейскому времени 8-го мая 1945 года, остаться на своих местах, где они находятся в это время, и полностью разоружиться, передав всё их оружие и военное имущество местным союзным командующим или офицерам, выделенным представителями Союзного Верховного Командования, не разрушать и не причинять никаких повреждений пароходам, судам и самолётам, их двигателям, корпусам и оборудованию, а также машинам, вооружению, аппаратам и всем вообще военно-техническим средствам ведения войны.

3. Германское Верховное Командование немедленно выделит соответствующих командиров и обеспечит выполнение всех дальнейших приказов, изданных Верховным Главнокомандованием Красной Армии и Верховным Командованием Союзных экспедиционных сил.

4. Этот акт не будет являться препятствием к замене его другим генеральным документом о капитуляции, заключённым Объединёнными Нациями или от их имени, применимым к Германии и германским вооружённым силам в целом.

5. В случае, если немецкое Верховное Командование или какие-либо вооружённые силы, находящиеся под его командованием, не будут действовать в соответствии с этим актом о капитуляции, Верховное Главнокомандование Красной Армии, а также Верховное Командование Союзных экспедиционных сил предпримут такие карательные меры или другие действия, которые они сочтут необходимыми.

6. Этот акт составлен на русском, английском и немецком языках. Только русский и английский тексты являются аутентичными.

Подписано 8 мая 1945 года в г. Берлине.

От имени Германского Верховного Командования:

Кейтель, Фридебург, Штумпф

В присутствии:

По уполномочию Верховного
Главнокомандования Красной Армии
Маршал Советского Союза
Г. ЖУКОВ

По уполномочию Верховного
Командования союзных
экспедиционных сил
Главный маршал авиации
ТЕДДЕР

При подписании также присутствовали в качестве свидетелей:

Командующий стратегическими
воздушными силами генерал
СПААТС

Главнокомандующий французской
армией генерал
ДЕЛАТР де ТАССИНЬИ

*Germaniyaning kapitulyatsiya to'g'risidagi akti
1945 yil 8 may kuni Yevropa vaqti bilan soat 23:43 da.
kuchga kirdi. (Moskva vaqti bilan 9 may soat 00:43 da).*



G'ALABANING BAHOSI

G'alaba juda qimmatga tushdi.

Buyuk Vatan urushi davrida Sovet Ittifoqi harbiy xizmatchilari va aholisining umumiy yo'qotishlari 26 600 000 nafarni tashkil etdi (1998-yilgi statistikaga ko'ra — 29 592 749 nafar).

Urush davrida SSSR Qurolli Kuchlarining qaytarib bo'lmaz yo'qotishlari 8 668 400 nafarni tashkil etdi. Shuningdek, «sanitar yo'qotishlar» degan toifa ham mavjud bo'lib, ularga yaralanganlar, kasallanganlar va sovuq urishiga duchor bo'lganlar kiradi.

Urush yillarida:

-15 205 592 nafar kishi yaralangan;

-3 470 675 nafar kishi kasallangan;

-90 881 nafar kishi sovuq urishiga duchor bo'lgan.

Umumiy hisob-kitoblarga ko'ra:

-Bedarak yo'qolganlar — 5 597 000 nafar;

-Asirlikka tushganlar — 4 559 000 nafarni tashkil qiladi.

Gitler lagerlarida esa 11 000 000 nafardan ortiq SSSR fuqarolari qatl etilgan.

Hanuzgacha bedarak yo'qolgan, "noma'lum askarlar" juda ko'pchilikni tashkil etadi.

G'ALABA TAQVIMI (1941 – 1945)



URUSHNING BOSHLANISHI

22-iyun tongi soat 4 da, hech qanday urush e'lon qilmasdan, nemis qo'shinlari SSSR hududiga bostirib kirdi.



1941-YIL YOZ – QISH

Fashistlar Belorussiya, Litva, Latviya, Estoniya va Moldaviyani bosib oldilar.



1941-YIL SENTYABR – DEKABR

Moskva uchun shiddatli janglar bo'lib o'tdi. 1941-yil 5-dekabrga kelib, sovet qo'shinlari fashistlarni Moskvadan 250 km uzoqlikka uloqtirib tashladi. Bu Gitler qo'shinlarining ilk mag'lubiyati edi.



1941-YIL SENTYABR – 1944-YIL YANVAR

Nemislar Leningradni to'liq qamalga oldilar. Qamal 900 kun davom etdi.



1942-YIL 17-IYUN – 1943-YIL 2-FEVRAL

Stalingrad jangi eng shiddatli janglardan biri bo'ldi va sovet qo'shinlarining to'liq g'alabasi bilan yakunlandi. 250 000 dan ortiq nemis askari va ofitseri taslim bo'ldi. Bu urush taqdirini belgilab bergan burilish nuqtasi bo'ldi.



1943-YIL 5-IYUL – 23-AVGUST

Ulug' Vatan urushining asosiy janglaridan biri — Kursk jangi. 1943-yil strategik tashabbusni o'z qo'liga olgan va mudofaadan muvaffaqiyatli hujum operatsiyalariga o'tgan Sovet Armiyasi uchun tub burilish yili bo'ldi.



1943-YIL AVGUST – DEKABR

Dnepr uchun jang Qizil Armiya harakatida muhim bosqich bo'ldi: ular avvalo Ukrainaning chap qirg'og'ini ozod qildilar, so'ngra o'ng qirg'oq bo'ylab Ruminiya chegarasigacha ilgariladilar.



1943-YIL 28-NOYABR – 1-DEKABR

Tehron konferensiyasi bo'lib o'tdi — bu Ikkinchi jahon urushi yillaridagi «katta uchlik» rahbarlari: I. V. Stalin, F. D. Ruzvelt va U. Cherchillning ilk konferensiyasi edi. Unda Germaniyaga qarshi kurash strategiyasi ishlab chiqildi. Fransiya qarshi ikkinchi frontni ochish, Germaniya va Polshaning urushdan keyingi tuzilishi, SSSRning Sharqiy Prussiyaning bir qismiga bo'lgan huquqlarini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.



1944-YIL YANVAR – IYUL

- Leningrad qamali batamom yechildi.
- Sovet qo'shinlari Ukrainaning o'ng qirg'og'ini ozod qildilar.
- Belorussiya hududida «Bagration» operatsiyasi boshlandi.
- Ruminiya ustidan g'alaba qozonildi.



1944-YIL SENTYABR – OKTYABR

Estoniya, Litva, Bolgariya va Yugoslaviya ozod qilindi. Sovet qo'shinlari Vengriya va Chexoslovakiya chegaralariga yetib kelishdi.



1945-YIL APREL

- Vengriya, Polsha va Sharqiy Prussiya ozod qilindi.
- 25-aprel kuni, G'alabaga 15 kun qolganda, Elba daryosida ittifoqchi qo'shinlar (AQSH va Angliya) tushirildi va Sovet Armiyasi bilan birlashdi.
- 30-aprel kuni Berlin ishg'ol qilindi va Reyxstag ustiga Sovet bayrog'i o'rnatildi.

К 80-ЛЕТИЮ ПОБЕДЫ

Urushda 2 000 000 o'zbekistonliklar ishtirok etdi, ulardan:

- 540 000 nafarga yaqini halok bo'ldi;
- 158 000 nafari bedarak yo'qoldi;
- 50 000 nafardan ortig'i konslagerlarda (qiynoqlar bilan) o'ldirildi;
- 60 000 nafardan ziyodi uyga nogiron bo'lib qaytdi.

Eslatma: Matndagi raqamlar Ikkinchi jahon urushida O'zbekiston xalqining g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatadi.



«Insoniyat tarixida eng vayronkor bo'lgan Ikkinchi jahon urushi dunyo xalqlariga, jumladan, xalqimizga ham yetkazgan og'ir azob-uqubatlar, sanoqsiz kulfat va talofatlar hech qachon unutilmaydi»

Shavkat Mirziyoyev



Ради тебя...

Люблю тебя я, Родина, безмерно,
Как честный человек, кто патриот.
Как каждый любит преданно и верно,
Как весь советский щедрый наш народ.

На фронте я, конечно, не случайно,
Да будь я даже слеп или без ног,
Я полетел бы смелой птицей – майной,
Чтоб на фашистов навести курок.

Пули, как град, я на врага насыплю,
Оружие мое всегда готово мстить,
Я, как коня, свой танк победно вздыблю,
И с самолёта буду в цель палить.

Вот фронт, и я дерусь в сражении,
Поскольку защищаю свою Мать.
Неколебимы мы, и верно наше мнение –
Мы ради Родины готовы жизнь отдать!

Шараф Рашидов.
Первый секретарь ЦК КП Узбекистана,
участник боёв за Москву



Manba:



Andijon viloyati Ikkinchi jahon urushi yillarida



Ikkinchi jahon urushi arafasida Andijon viloyati aholisi 614,5 ming kishini tashkil etgan. Ulardan 97,5 ming nafar fuqaro frontga safarbar qilingan, ya'ni aholining 15,6 foizi urushga ketgan. Urush butun mamlakat qatori andijonliklarga ham cheksiz qayg'u va yo'qotishlar olib keldi.

Frontdan 43,5 ming nafar andijonliklar qaytmadi. Ularning aksariyati jang maydonlarida halok bo'lgan bo'lsa, ba'zilari bedarak yo'qolgan. Ushbu dahshatli urushdan viloyatning 54 ming nafar aholisi qaytib keldi, ulardan 40,9 ming nafari nogiron bo'lib qolgan edi.



Manba



18 nafar yurtdoshlarimiz yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.
Ular safida andijonliklar ham munosib o'rin egallaydi



Adashev Sali



**Bilyutin Kondratiy
Vasilyevich**



**Polejaykin Sergey
Ivanovich**



**Puchkov
German Ivanovich**



**«Sovet Ittifoqi
Qahramoni»
unvoni**



**Semikov Aleksandr
Ivanovich**



**Rodin Nikolay
Ivanovich**



**Fedorov Ivan
Ilyich**



**Turdiev Kuchkar
Axmedovich**



**Xabiev Vildan
Saidovich**



**Xakimov
Nematjon**



Shakirov Astankul



**Yuldashev Abdullaziz
Daminovich**




**«Sovet Ittifoqi
Qahramoni»
unvoni**



Yoqubov Usmon



Yoqubov G'ulomjon





G'alaba siymolari



Quvonchli, ayni paytda iztirobli ushbu onlarda insoniyatni fashizm balosidan ozod etish yo'lida beqiyos jasorat va fidoyilik ko'rsatgan otalarimiz va bobolarimizni chuqur ehtirom bilan yodga olamiz. Ularning matonati, vatanparvarligi va yorug' xotirasi avlodlar qalbida abadiy saqlanib qoladi.

Shavkat Mirziyoyev



«Hamisha qablarda yashaydi!»



«Xotirlash — bu hujjatlarni, front ortidan kelgan xatlarni asrab-avaylash demakdir. Xotirlash — bu urush haqida kitoblarni mutolaa qilish demakdir.»

O.Y. Axunjanova,
**«Bobur kutubxonasi»
jurnali muharriri**

O'zbekiston aholisi nafaqat frontda, balki front ortida ham matonat va jasorat namunasini namoyon etgan holda bor kuch va g'ayratini nafaqat g'alabaga, balki umuminsoniy qadriyatlar – tinchlik, erkinlik va adolatni muhofaza qilishga qaratgan edi.

Mamajanov Sanjarbek, tarix fanlari nomzodi, dotsent. Tahririyat kengashi a'zosi

ITALIYANING ANDIJONLIK QAHRAMONI



Shoxida Shokirova

Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi,
Huquqiy axborotlar sektori mutaxassisi

2025 yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga 80 yil to'ldi.

Ikkinchi jahon urushida butun O'zbekiston halqi qatori 97,5 ming nafar andijonliklar ham fashizmga qarshi kurashga otlandi. Ular boshqa qardosh halqlar bilan yonma-yon turib Moskvadan Berlingacha, butun bashariyatni fashizm balosidan ozod etish uchun mardonavor jang qildilar.

Ikkinchi jahon urushidan 54 ming nafar Andijonlik o'z yurtiga qaytib keldi. Uyi, oilasiga qaytgan har biri jangchining jasorati o'zi bir doston. Hozirda ularning atigi 4 nafari hayot. Bugungi kunda viloyatimizda to'rt nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, bir nafar fashistlar kontslagerida asir bo'lgan hamda to'rt yuz nafardan ziyod front orti mehnat faxriysi umrguzaronlik qilmoqda. Ularning ko'ksini qadr, ehtirom, sharaf degan yuksak unvonlar bezab turibdi.

Urushdan qaytgan 54 ming nafar Andijonliklar qatorida Ahmadjon Mamajonov ham bor edi.

Mamajon kulol va Oyimxon chevarning o'g'li Ahmadjon 1922 yilning 1 yanvarida Andijon shahrida tug'ildi. 29-maktabni tamomlab, o'qituvchilar tayyorlash maxsus kursini a'lo

baholarga bitirdi. Unga ishlash uchun Andijon tumanidagi Nayman qishlog'ida joylashgan to'liqsiz o'rta maktabga yo'llanma berishdi.

Ahadjon yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rib turganida, ulug' Vatan urushi boshlanib qoldi. U 1942 yil may oyining oxirlarida frontga otlandi. Ozgina harbiy tayyorgarlikdan o'tib, frontga ketdi. Chuykov qo'mondonligidagi 62-armiya qismlarining birida bo'linma qo'mondoni, vzvod komandirining siyosiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib fashistlarga qarshi kurashdi. U jangchilarni tinmay ruhlantirar, bostirib kelayotgan dushmanga qarshi hujumga boshlab borar, dovyurakligi bilan namuna bo'lardi. Stalingrad ostonalariida og'ir mudofaa janglari borardi. 1942 yilning avgust oyining oxirlarida janglar yanada dahshatli tus oldi. Ularning qismi Kalach cho'lida qurshovda qoldi. Ahmadjon yoniga kelib tushgan snaryadning portlashidan xushidan ketdi.

-Nemis tilida so'kinib, etigida biqiniga tepayotganidan xushiga kelgan Ahmadjon qarshisida avtomat o'qtalغان fashistni ko'rdi. Nemislar uni asir oldi. Uni dastlab Melirovo shahri yonidagi adirlik o'rtasida joylashgan konslagerga olib kelishdi. Dilni ezuvchi qiynoqlar, so'roq-savollar boshlandi.



Har bir qadam, xarakat nazorat ostida edi. Ahmadjon yuzlab asir jangchilar qatori Xorol, Lyubshin, Polshadagi Sileziya, Germaniyadagi Noehammer konslagerida it azobini ko'rdi. Asirlik, harbiy asirlar lageri, ikkinchi shunday lager, uchinchi lager. Og'ir kunlar, oylar, qiynoq, haqorat, ochlik.

Ammo e'tiqod, sadoqat butunligi, qayerda bo'lsa ham dushmandan qasos olish istagi uni sira tinch qo'ymasdi. 1943-yilning oxirida gitlerchilar bir necha yuz harbiy asirlarni Germaniyadagi konslagerlardan Italiyaning Karrara shahriga olib kelib, marmar konida ishlata boshlashadi. U yerdagi asirlar tosh kesishardi. Italiya partizanlarining qahramonliklari haqidagi xabarlar asirlar yashaydigan baraklargacha yetib kelardi. Ahmadjon asirlikda italiyalik Djino Krudeli bilan tanishib qoladi, u bilan birgalikda ko'p o'tmay bir necha asirlikdagi kishilar fashistlar tuzog'idan qochishadi. Ular bir necha kun tog'larda berkinishadi, ularni bir oila nemislardan yashiradi, keyinchalik esa partizanlar turgan toqqa qochib borishadi. Ularga italyan qizlari Nelli va Elvira yordam

beradilar. Toskana oblastining shimolida harakat qiluvchi Italiyaning mashhur xalq qahramoni Juzeppe Garibaldi nomidagi partizanlar otryadi jangchilarining qahramonliklari el og'zida edi. U yerda ularni bo'yinlariga pionerlarning qizil galstuklarini taqib olgan yuzlab kishilar kutib oladilar. Ana shu daqiqadan boshlab ular xalq qasoskorlari safiga qo'shilib, qo'lga qurol olib, kurashga kirishib ketadilar. Bir necha bor quroldosh do'stlari bilan soldat va qurol-aslaha yuklangan dushman poezdlarini, avtomashinalarini kulini ko'kka sovurdilar. Ko'prikni porlatdilar. Lagerdagi harbiy asirlarni ozod qilish tashkil etildi. Dushman kazarmalari va omborlariga o't qo'yildi. Nemislarning qurol-yarog'larini qo'lga kiritardilar. Partizan otryadi uchun oziq-ovqat topardilar. U bilan birga andijonlik o'zbek farzandlari Nazir Abdurahmonov, Oyim qishloqlik Turg'unali Qo'chqarov va Bozorboy ismli hamshaharlari ham partizanlar otryadida jang qilishdi. Turg'unali Ahmadjondan yoshi katta bo'lib, urushgacha uylangan, o'g'li bor edi. Ular o'sha Italiya tog'lari orasida aka-uka bo'lishga ahd qildilar. Qizg'in janglar to'xtovsiz kunu tun davom etardi. 1944 yilning bahor va yoz oylari ana shunday janglar bilan o'tdi.

...O'sha kunlari ular Karrara tog'larining eng yuqorisida joylashgan edi. Italiyaliklar Ahmadjon Mamajonovni – Mixaylov Aleksandr, Turg'unali Qo'chqorovni Mixaylov Turan deb atasha boshlashdi. Ahmadjon Turg'unbek bilan hamma operatsiyalarda birga bo'lishdi. 1945 yilning fevral va mart oylarida gitlerchilar bilan partizanlar o'rtasida kuchli to'qnashuvlar bo'lib turdi. Mart oyining oxirida partizanlar Monti farma tog'ini butunlay egallab olgan edilar. Ro'parasidagi tog'da esa dushman joylashgan bo'lib, har ikki tomon bir-biri bilan to'xtovsiz otishib turardi. Ahmadjon va italiyalik Boji pulemetchi edi. Ular qulay marrada turib, dushman soldatlarini toqqa yaqinlashtirmaslik uchun o'q yog'dirib talofat yetkazardi. Turg'un Qo'chqarov dovyurak razvedkachi, merganligi bilan partizanlar o'rtasida shuhrat qozongan edi. Gitlerchilar Mixaylo Aleksandro - Ahmadjon

Mamajonovning boshi uchun 20.000 lir va'da qilishgandi. Lekin ular maqsadlariga yetisholmadi. 1945 yilning 10 aprel kuni partizanlar har tomondan shturm qilib Karrara shahrini fashistlardan ozod qildilar. Partizan otryadi ozod qilingan Italiya yeridan olg'a tomon bordi. Kecha-kunduz to'plar ovozi tinmas, dushman istehkomlarida bomba va to'plar portlar, vasvasaga tushgan fashistlar esa tum-taraqay bo'lib qochishardi. Partizanlar Amerika va Angliya qo'shinlari qo'shilishidan oldin Ravenka provinsiyasini ozod qilishdi. Urush tugagandan so'ng Italiya partizanlari Ahmadjon va Turg'unaliga uy hamda yer berib, Karrara shahrida qolishni taklif etishdi. Italiya partizanlaridan go'zal nelli Ahmadjonga turmushga chiqmoqchi bo'ldi. Lekin ularning har ikkisi bu taklifga ko'nishmadi. Italiyaliklar partizanlar otryadini yaxshi bilishadi. Ahmadjon Mamajonov 1945 yilning 22 iyun kuni – o'z o'rtoqlari bilan Italiyaning poytaxti Rimga kelgan. Bu yerda Italiya Kompartiyasi Markaziy Komiteti sekretari Palmiro Tolyatti shaxsan ular bilan suhbatlashdi. U partizanlarni buyuk g'alaba bilan tabrikladi. Shundan so'ng boshqa sovet partizanlari bilan Genuya shahriga kelishadi. Shu yerdan partizanlar – ular qatorida Ahmadjon Mamajonov, Turg'un Qo'chqarov

ham o'z vatanlariga jo'nab ketishadi.

Ular Moskvada bir necha kun maxsus tekshiruvdan o'tishgandan keyin, sog'-omon Andijonga qaytib kelishadi.

...Axmadjon Mamajonovga tegishli, yillar o'tishi bilan sarg'ayib ketgan, Mixaylo Aleksandro nomiga berilgan italyan pasporti va 1945 yilning may oyida Italiya partizanlari Milliy uyushmasi tomonidan berilgan 273311 raqamli "Vatanparvar guvohnomasi". Unda "Mixaylo Aleksandro!. Davlat va xalq nomidan vatanparvarligingiz va umumiy dushman – fashizmga qarshi faol kurashganligingiz, g'alaba va qahramonligingiz, ozod qilingan Italiya oldidagi katta xizmatlaringiz uchun Sizga minnatdorchilik bildiraman" deb yozilgan.

Shuningdek oradan ancha yillar o'tgach, Italiya Milliy partizanlar uyushmasining uzoq Andijonga yuborgan maktubida "Aleksandro Mixayloga umumiy dushman – fashistlar va ularning malaylariga qarshi qahramonona kurashganligi, ozodlik va demokratiya tantanasi yo'lidagi kurashi uchun Italiya xalqi nomidan minnatdorchilik bildiramiz..." – deyiladi.

Maktublar... maktublar ...

Ular juda ko'p.....



Bu maktublar partizanlar safida Karrara tog'larida nemis, italyan fashistlariga qarshi bir yarim yil davomida janglarda qatnashgan Andijon o'g'loni Ahmadjon Mamajonovga bo'lgan ehtirom ko'rinishi edi.

35 yildan so'ng....

Ahmadjon Mamajonovning ota-onalari uni halok bo'lganligi haqida qoraxat olgan va allaqachon aza ochgan edilar. 1945 yilning 13 oktyabr kuni tug'ilib, o'sgan Andijonga, uyiga

uning sog'-salomat, kirib kelishi ota-onasi uchun juda katta quvonch bo'ldi.

U Andijon tumanidagi mak-tablardan birida direktor bo'lib ishladi. Rashida ismli qizga uylandi. Samarqanddagi davlat oliygohining matematika fakultetida kunduzgi bo'limida o'qidi. 1954 yili oliygohni tugatgach, Andijon davlat pedagogika instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti Andijon filialida xizmat qildi. U Andijon paxtachilik instituti poydevoriga birinchi g'isht qo'yganlardan biridir.

1964 yildan Andijon paxtachilik instituti oliy matematika kafedrasida katta o'qituvchisi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti dekanining o'rinbosari lavozimlarida xizmat qilib, qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishiga salmoqli hissa qo'shdi.

Halol mehnati, Vatanga muhabbati, oilaga sadoqati unga shon-shuhrat keltirdi. Ahmadjon Mamajonovning janglarda ko'rsatgan matonati, ko'p yillik samarali mehnatlari munosib baholangan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" Faxriy unvoni, davlatimizning qator orden va medallari bilan taqdirlangan.

U Rashida opa bilan besh farzandni zamonamizning munosib farzandlari etib tarbiyaladi.

Ahadjon aka Mamajonov 2010 yilning avgust oyida vafot etdi. Lekin qahramonlik barhayot. Kelgusi avlodlarga merosdir.



2023 yilning 9 noyabr kuni Italiyaning Karrara shahrida yozuvchi Marti Tondjaning «По велению сердца. Апуанское сопротивление и вклад советских партизан» nomli kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ko'p yillik izlanishlar va mehnat samarasi natijasida chop etilgan ushbu kitobda ikkinchi jahon urushi yillarida fashistlarga qarshi Stalingrad janglarida, keyinchalik Italiya partizanlari bilan birga kurashgan, qarshilik xarakatining eng faol a'zolaridan biri sifatida qahramonlik ko'rsatgan O'zbekistonlik jangchilar haqida hikoya qilinadi. Andijonlik Ahmadjon Mamajonov va Turg'un Qo'chqorovlarning qahramonliklari haqida hikoya qiluvchi bu kitob biz uchun ham alohida qadri.



Oradan 35 yil o'tgach italyan partizanlaridan biri o'z do'stlarini rus va Italiya matbuotlari orqali qidira boshlaydi. Qidiruvlar muvaffiyatli yakunlandi. Italiyadan – O'zbekistonga, O'zbekistondan – Italiyaga maktublar yozila boshlandi. Marta Tondjini o'rtada maktublarni tarjima qilib bera boshladi. Besh yillik yozishmalardan so'ng Sovet va Italiya delegatsiyalari Moskva, Leningrad shaharlarida uchrashdilar. Keyinchalik do'stlar muntazam ravishda uchrasha boshladi.

Ahadjon Mamajonov bilan suhbat davomida Marta Todjini Italiya partizanlari safida 70 nafarga yaqin sovet soldatlari bo'lganligi haqida eshitdi.

Marta Todjini o'zining kitobini yozilishiga o'zbek partizani Ahmadjon Mamajonov va uning italyan do'sti Krudelining nabiralari yordam berganligini alohida ta'kidlab o'tadi.



Keyinchalik muallif - Marta Todjini Andijonga keldi, Ahmadjon Mamajonovning qabrini ziyorat qildi.

ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumida: O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan xalq maorifi xodimi unvoni bilan Ahmadjon Mamajonov taqdirlandi // Sovet O'zbekistoni. – 1982. – 27-yanv.


2.Mamajonov, A. Ezgulik unutilmaydi: [Ikkinchi jahon urushi yillarida Italiya partizanlari safida fashistlarga qarshi kurashgan A. Mamajonovning Italiyaga qilgan safari taassurotlari] // Kommunist. – 1988. – 1-yanv.

3.Italiya tog'larida // Adham Rahmat. G'alabaga chorlagan maktub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1970. – B. 13–29.

4.Karrara tog'larida // Shamsharov, Y. Vorislar: qissalar, hikoyalar, ocherklar, adabiy portretlar / Yo'ldosh Shamsharov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1983. – B. 126–237.

5.Vatandan olisda // Z. Muhitdinov, A. Sultonov. Andijonlik qahramonlar. – Andijon: Andijon nashriyoti, 1995. – B. 105–110.

“KITOBLAR URUSH HAQIDA SO'ZLAYDI”



СПАСИБО ОТЦУ И ДЕДУ ЗА ПОБЕДУ



Анна Терехова,
член читательского клуба
областного-информационно
библиотечного центра
«В мире женщин»

Я РАССКАЖУ О СВОЕМ ОТЦЕ

В год 80 –летия со дня окончания Великой Отечественной войны я хочу поделиться воспоминаниями моего отца о войне. Мой отец Пасмух Бориса Даниловича войну встретил на Украине. Он работал в городе Одесса на заводе им. Старостина. На службу в ряды Советской Армии его до войны не взяли по состоянию здоровья, он был слеп на левый глаз. Но вот началась война и он помнил летели самолеты, которые бомбили Одессу. Началась массовая мобилизация. Заводчане отправились на войну и вместе с ними мой отец.

Он попал в стрелковую роту. В одном из боев его контузило и он даже не помнил,

сколько пролежал. А когда пришел в себя, то увидел перед собой немца, который знаком приказал ему встать и повел под конвоем. По разговору отец понял, что это не немец, а румын, так как отцу было немного знакомо немецкий язык. Румын решил отвести пленного отца в немецкий штаб, который находился в 30 километрах. Изъяснялись знаками. Шли долго, устали и решили присесть. Именно во время отдыха отец решил бежать, ему пришлось конвоира и, осмотревшись, он побежал к лесочку. Проявив сноровку, залез на высокое дерево, чтобы определить в каком направлении идти дальше. Дождавшись ночи, он стал пробираться незаметно к ближайшему населенному пункту. Но на краю села вдруг наткнулся на патруль, опять таки румына с автоматом. Опять его пленили и в этот раз доставили в немецкую часть. Там отца допросили, но не получив никаких сведений, бросили в погреб с цементным полом, и держали без еды 5-10 дней. Потом вывели на улицу. По разговорам отец понял, что его должны отвести в лагерь в Парканы, возле г.Тирасполь, далее должны были паромом отправить в г.Могилев. Таких как отец пленных было много. Когда их вели по улицам, то жители пытались дать им поесть, но румыны стреляли в них, не разрешая брать

пищу. Поместили их в каких-то бараках, где держали 2 или 3 дня. Отец никак не мог примириться с пленением и предложил одному пленному сбежать вдвоем, но напарник не согласился. Тогда отец решил убежать сам.

Ночью, когда было тихо, он подкрался к часовому, приглушил его ударом и медленно выбрался из барака и поспешил скрыться. Его ухода никто не заметил.

Так он добрался до Крижопольского районного центра (сельское поселение в Тульчинском районе Винницкой области Украины), и стал там партизанить. Однажды, когда ехал на подводе по горной местности, подвода его перевернулась, отец выпал из нее и сломал ногу и попал в санчасти. По выздоровлению и был призван в Крижопольским военкомом. Военные события в 1943-1944 годах в этом районе разворачивались крайне жестко.

Я всегда интересовалась историей освобождения советской армией тех мест, где мой отец принимал участие. Недавно нашла в интернете информацию о боях за Фастов. (<https://m.ok.ru/group/70000002864589/topic/157431328467917>) из которой узнала очень много интересного про освобождение от немецких захватчиков Фастова и героические подвиги танкистов. Узнала о том, что 7 ноября Красная армия взяла важный узел железных дорог в Фастове, соединявший с Киевом. Противнику в этом районе серьезный урон немцам нанесли танкисты 3-й гвардейской армии П. С. Рыбалко, взяв большие трофеи: технику, горючее, продовольствие. Но немецкое командование приказало немецкой 25-й танковой дивизии вернуть контроль над Фастовом.

Подтянув танковые дивизии, противник бросил их на части, оборонявшие г. Фастов, стремясь любой ценой овладеть крупным железнодорожным узлом.

91-я отдельная танковая бригада 9 ноября отбила три яростных контратаки противника, в каждой из которых участвовало от 25 до 50 танков при поддержке самоходной

артиллерии.

Танкисты и мотострелки смело вступили в бой с танками врага, ни один боец не дрогнул при появлении бронированных сил противника. У каждого была одна мысль — отстоять город, именем которого названа бригада, и нанести как можно больший урон врагу.

За день было сожжено и подбито 23 танка противника и уничтожено свыше 200 гитлеровцев.

В другом бою, несмотря на превосходство сил и настойчивость в атаке, противник не мог прорвать линию обороны, которую защищала батарея лейтенанта Пичкура. Весь личный состав дрался храбро и упорно. Только за один день было подбито 11 танков и 28 автомашин противника. Все атаки были отбиты...

Литература, которой мы располагаем, дала нам много сведений о героических сражениях советских солдат.

Все атаки противника были отбиты. Но после таких битв остается смертоносный металл, еще не успевший остыть от горевших танков. И вот тогда наступало время разминирования местности и сбора оставшегося трофейного и отечественного оружия, боеприпасов и прочего военного имущества. Вот такой работой и занимался мой отец под Фастовом: принимал участие в разминировании большой территории леса, ставшего безопасным. За что получил медали «За отвагу». «Отличный минер». И дали отпуск домой. После отпуска его послали в г.Киев, где комиссовали.

Я лично помню только конец войны. Мне было 3 года. Но я запомнила приезд папы в отпуск. Ночью в окно кто-то посветил фонариком. Мы все проснулись и мама пошла открывать дверь. Отец вошел с чемоданом, взял меня на руки, обнял. Я сопротивлялась, так как не помнила его. Вот такая была моя первая встреча с отцом. Потом открыли чемодан и там были конфеты, печенье, которые я тоже увидела впервые. Помню

военные и послевоенные годы, голодовку 1945- 1947 года. Кушать ничего небыло. Бабушка варила траву без ничего. Говорила что это борщ. Мы сами старались что-нибудь раздобыть для еды. Собирали ягоды с тутовника, который рос в 2-3 км от нас. Мы не могли дождаться, когда поспеют яблоки в колхозном лесу, голод заставлял нас их рвать совсем зелеными. В ход в качестве еды шли пшеничные колоски, цветы белой акации, конский щавель, лебеда. Все это я приносила бабушке и ела сама, чтобы не умереть с голоду. И мы выжили.



Лилия Ильчук

*член читательского клуба
областного-информационно
библиотечного центра
“В мире женщин”*



Пасмух Бориса Данилович

Мы помним!

Мы гордимся!

Мой дед Ильчук Фадей Иосифович уроженец Гродненской губернии (Польша) родился в семье военного.

Рос в годы, когда на Гродненской земле шла сменяемость владения разными государствами. Так, Гродно было в руках Польши, но вскоре его завоевала Литва, но через 4 месяца опять Гродно переходит к Польше. Юный Фадей в начале 1921 года сумел покинуть Гродно и оказался в России, затем в Ташкенте. А из Ташкента переехал в Коканд и, наконец, на постоянное место жительства в Андижан, где у него появилась семья. Когда началась война с гитлеровскими захватчиками, он был призван в 1942 на фронт.

Учитывая его национальность и знание польского языка, его отправляют в состав 1-ой польской пехотной Варшавской дивизии имени имени Тадеуша Костюшко, Это воинское соединение было сформировано из польских граждан и граждан СССР – польской национальности. Фадей Иосифович в чине капрала (первичное звание унтер-офицера) был зачислен в 1-ый полк легкой артиллерии.

Дивизия находилась в составе действующей армии с 1 сентября 1943 года по 31 мая 1945 года и участвовала в освобождении Польши, Поморского вала, Белоруссии, взятии Германии.



Вклад польских воинов в победу в Великой Отечественной войне получил высокую оценку: более 5 тысяч военнослужащих и 23 части Войска Польского были награждены советскими орденами. Имел правительственные награды и Фадей Иосифович.

13 раз Войско Польское было отмечено в приказах Верховного Главнокомандующего Вооруженными Силами СССР. Лучшие его бойцы принимали участие в Параде Победы на Красной площади 24 июня 1945 года. Если бы не ранение, возможно и капрал Фадей участвовал в нем. Но 3 мая 1945 года при освобождении Берлина он получил тяжелое ранение. Ранение было настолько тяжелым, что этот день он считал своим вторым днем рождения.

А в Андижане его ждала семья – жена Валентина и трое сыновей - Анатолий, Геннадий и Борис, к которым он вернулся только в 1946 г.



АХУНЖАНОВ ЮСУП



(1916 – 1958)

Biz otamizni juda kam bilamiz — uni faqat onamizning xotiralari orqali taniganmiz. U juda yoshligida, urushda olgan jarohatlari oqibatida 1958 yilda vafot etgan. O'sha paytda katta farzand 10 yoshda, eng kichigi esa atigi 3 yoshda edi.

Otamiz Andijon shahrida, Ishchilar ko'chasida tug'ilib o'sgan. Oilada ikki farzand bo'lgan — u va uning katta opasi. Ota-onalari o'ldirilganidan so'ng, ular qarindoshlar qo'lida yetim bo'lib voyaga yetishgan. Urush boshlangach, taxminan 1942–1943 yillarda otamiz frontga chaqirilgan. U 4-front tarkibida jang qilgan, haydovchi bo'lgan. Quyi Dnepr strategik hujum operatsiyasida, Qrim janglarida ishtirok etgan. Keyinchalik Moraviya va Polshani ozod qilishda ham qatnashgan. Janglarda yaralangan. G'alabani Pragada kutib olgan.

Otamizning sevimli front qo'shiqlari “Qorong'i tun” va “Yer osti uyi (Zemlyanka)” bo'lganini bilamiz. Ehtimol, shu qo'shiqlar sadolari ostida u o'zining tug'ilgan shahri — Andijonni, temir yo'l bo'yidagi tut daraxti bezatib turgan uyini (u uy hozirgacha saqlanib qolgan) va, albatta,

sevgilisi Xayitxonni yodga olgan bo'lsa kerak. Ammo urush uning taqdirida og'ir iz qoldirdi. Frontdan qaytayotganda ularning polki Bukovina hududidagi Chernovtshi shahrida to'xtagan. Shu yerda ular banderovchilarning vahshiyona hujumlariga duch kelishgan: ular kechalari uyiga qaytayotgan askarlarga hujum qilib, ko'plab insonlarni qirib tashlashgan. Natijada omon qolganlar yana jang qilishga majbur bo'lishgan — endi ukrain banderovchilariga qarshi.

Dadam Chernovtsida qolib ketgan va aynan shu yerda o'z taqdirini — mening onamni uchratgan.



Мария Якововна



Мария



Дмитрий

Otamiz O'zbekistonga 1955 yilda qaytgan. Ammo vatanida uzoq yashay olmadi — atigi uch yil. 1958-yil bahor oyida vafot bo'lgan.

Ammo biz — uning farzandlari: Olga, Dmitriy va Mariya — hayotda qoldik, va uning vatani bizning ham vatanimizga aylandi.

Biz hammasimiz unga munosib bo'lishga, uning xalqiga xizmat qilishga harakat qildik.

Ahunjanova Olga

«Bobur kutubxonasi» jurnali muharriri

YOSHLAR UCHUN ILM VA IJOD MASKANI



Robiya Sohibjonova

Andijon shahar
5-umumta'lim maktabining
11-“D” sinf o'quvchisi

Bobur nomidagi viloyat axborot - kutubxona markazi nafaqat kitoblar saqlanadigan maskan, balki yoshlarning ilmiy, madaniy va ma'naviy o'sishi uchun muhim markaz hisoblanadi. Ushbu kutubxona zamonaviy infratuzilma, boy fond va faoliyat ko'lamlari bilan ajralib turadi, u yerda kitoblar bilan tanishishdan tashqari, yoshlar o'z ijodiy va ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Shu kutubxonaning eng yorqin jihatlaridan biri – “Zukko Bilimdonlar” klubi bo'lib, men ushbu klubning faol a'zosiman.



Klubning har bir yig'ilishida shoirlar, yozuvchilar va ijtimoiy faol shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil qilinadidi, bu uchrashuvlarda biz o'z she'rlarimizni aytamiz, fikr almashamiz va

ijtimoiy muammolarni muhokama qilamiz. Klub faoliyati nafaqat adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshiradi, balki yoshlarni milliy madaniyatimiz, tariximiz va ma'naviyatimiz bilan tanishtiradi, ularga o'z fikrini erkin ifoda qilish va ijodiy ovozi topish imkoniyatini beradi. Har bir uchrashuvda shoirlar hayoti va ijodi bilan tanishish bizga ilhom beradi, ularning so'zlari bizning yuragimizga yetadi, hissiyotlarimizni uyg'otadi va o'zimizning shaxsiy ijodiy imkoniyatlarimizni ochishga yordam beradi. Shu jarayonda adabiyot hayotimizdagi voqealarni yorituvchi kuch ekanligini tushunamiz.

Klubimizning faoliyati ijtimoiy masalalarni muhokama qilish bilan ham bog'liq. Yoshlar orasidagi munosabatlar, ta'limdagi qiyinchiliklar, atrof-muhit va sog'liqni saqlash masalalari, shuningdek, jamiyatdagi dolzarb muammolar – bularning barchasi uchrashuvlarimizning mavzularini tashkil qiladi. Bu muhokamalar nafaqat aqlimizni rivojlantiradi, balki qalbimizni ochadi, bizni tanqidiy fikrlashga, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatadi va jamiyatga foydali bo'lishni anglatadi. Har bir a'zo o'z fikrini bildirishni, boshqalarning fikrini tinglashni va muammolarni hal qilish yo'llarini izlashni o'rganadi, shu bilan birga o'z ijodiy tafakkurini

kengaytiradi. Har bir uchrashuvda his qiladigan hissiyotlarim meni yangi she'rlar yaratishga ilhomlantiradi, qalbidagi fikrlar va tuyg'ular mening yozganlarimda jonlanadi, o'zimni yanada o'stirilgan va ijtimoiy faollikka ega shaxs sifatida his qilaman.



Kutubxona va klub faoliyati doirasida amalga oshiriladigan loyihalar yoshlarning ijodiy va ilmiy o'sishiga katta hissa qo'shadi. Misol uchun, so'nggi "Milliy Ijodiy Meros" loyihamiz doirasida biz shoirlar va yozuvchilar bilan birgalikda milliy qadriyatlarni targ'ib qiladigan maqolalar, hikoyalar va she'rlar yaratdik. Bu loyihalar yoshlarning ijodiy ovozi topishiga, milliy madaniyatni chuqurroq anglashiga va jamiyatdagi muhim masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Shu jarayon yoshlarni shaxsiy o'sish, jamoaviy ish va liderlik ko'nikmalarini shakllantirishga undaydi, ularni mas'uliyatli qarorlar qabul qiladigan, fikrini erkin ifoda etadigan va jamiyatga foydali hissa qo'shadigan shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

Men shaxsiy tajribam orqali ayta olamanki, "Zukko Bolimdonlar" klubi nafaqat ilmiy va madaniy markaz, balki qalbidagi adabiyot nurini yoritadigan maskandir. Har bir uchrashuvda o'rganganlarim, shoirlar bilan bo'lgan muloqotim, muhokama qilingan ijtimoiy mavzular va o'z she'rlarim orqali men ichki dunyoimni boyitaman, hissiyotlarimni kuchaytiraman va jamiyatga mas'uliyat bilan qarashni o'rganaman. Shu jarayon orqali men nafaqat o'z bilimim va ijodiy qobiliyatimni

oshiraman, balki jamoadoshlarimni ham rivojlantirishga hissa qo'shaman. Klub faoliyati yoshlarni milliy qadriyatlarni qadrlashga, insoniylikni anglashga va jamiyatga ijobiy hissa qo'shishga undaydi.

Bobur kutubxonasi va "Zukko Bilimdonlar" klubi yoshlarning ilmiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishida beqiyos rol o'ynaydi. Bu yerda har bir yosh o'z bilimini oshiradi, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantiradi, milliy qadriyatlarni hurmat qilishni va jamiyatdagi dolzarb masalalarni anglashni o'rganadi. Klub faoliyati nafaqat fikrlashimizni va hissiyotlarimizni rivojlantiradi, balki ijtimoiy faolligimizni oshiradi, bizni mas'uliyatli va ijobiy shaxslar sifatida shakllantiradi. Shu bois, Bobur kutubxonasi va "Zukko Bilimdonlar" klubi nafaqat kitoblar saqlanadigan joy, balki yoshlarning qalbini, aqlini va hissiyotlarini rivojlantiradigan haqiqiy ilmiy, madaniy va adabiy markazdir. Shu klub orqali men o'z orzularimni, ijodiy imkoniyatlarimni va jamiyatdagi mas'uliyatimni yanada kuchaytiraman, adabiyot va ma'naviyatning hayotimizdagi o'rni chuqurroq anglayman va har bir uchrashuv meni yangi qadamlar tashlashga ilhomlantiradi. Shu sababli, "Zukko Bilimdonlar" klubi yoshlar uchun nafaqat bilim va ijod makoni, balki qalbni yoritadigan, hissiyotlarni uyg'otadigan va jamiyatga foyda keltiradigan haqiqiy adabiy maskandir.



XXI-ASR YOSHLARINI KITOBXONLIKKA JALB ETISH



Xolidaxon Qodirova
Andijon shahar
31-umumiy o'rta ta'lim
maktabining
10-"S" sinf o'quvchisi

Jamiyatimiz taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda yoshlarning jismoniy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'trildi desam mubolag'a bo'lmaydi. Ma'rifat, ziyo, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilmfan sirlarini puxta egallash bilan qo'lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin ko'makchi albatta kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo'jizadir. Kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo'lgan eng yaxshi va eng yaqin do'stdir. XXI-asrga kelib yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki zamonaviy axborot-texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bu asrda insonga axborotga ega bo'lish imkoniyatlarida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Oldin kutubxonalar eng asosiy bilim manbai hisoblangan bo'lsa, bunga kelib axborot olishning manbaalari keng qamrovli: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida kutubxonalarga bormasdan ham masofadan turib ma'lumot olish, kitoblar, davriy nashrlarning elektron nusxalarini o'qish, audio-video resurslardan foydalangan

xolda axborotga ega bo'lish sharoitlari yaratildi.

Yoshim 16 da. Andijon shahridagi 31-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qiyman. Farzand yoshi ulg'ayib, kelajak sari qadam bosar ekan, uni komil inson sifatida kamol topishida birinchi navbatda ota-ona va albatta, atrof-muhitning, qolaversa, jamiyatning sezilarli jarajada ta'siri bo'larkan. Jamiyat ta'siri deganda butun dunyoni zabt etayotgan internet tarmog'i ko'z o'ngimga keladi. Bu yoshlar kelajagini kamolotga va yoki halokatga ham olib boradigan eng qulay vositachi sifatida dunyo ahlini zabt etib borayotganligi hammamizga ma'lum. Darslarimiz jarayonida ustozlarimiz bu jumalarni bot-bot takrorlab o'tishadi. Avvaliga, bu jumalar hamma tengdoshlarim qatori meni ham g'ashimga tegar edi. Maktabimizda o'tkaziladigan yig'ilishlardan boshlab turli tadbirlarda qayta-qayta eslanadigan bu jumalar, unga qarshi o'laroq kitob insonning eng yaqin do'sti ekanligini ta'kidlayveradigan ustozlarimizdan zerikish sezardim. Ko'z o'ngimda bo'lib o'tgan voqea sabab, huddiki uyqudan uyg'ongandek bo'ldim, va...

Shu o'rinda, voyaga yetib borayotgan bir shaxs sifatida o'quvchilik davrimdan maqsadli

foydalanib, o'zim va yurtim kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratish borasida oltinga teng qimmatli vaqtimdan unumli foydalanib qolishni asosiy maqsadim deb bildim. Ustozlar yordamida bilim olib, maqsadlarim sari qadamlarimni dadillashtirdim. Bu borada inson uchun eng yaqin ko'makchi kitob ekanligini maktabimiz kutubxonasi va unda faoliyat yuritayotgan kutubxonachi Nilufar opa To'rabekova yordamlari orqali yanada yaxshi xis qildim. Kitoblar olami meni o'ziga ohangrabodek torta olayotgan bir vaqtda, ularni saqlanishida bekalik qilayotgan kutubxonachi Nilufar opa biz o'quvchi yoshlar orasida kitob va mutolaa madaniyatini yuksaltirishda beminnat yordam berib kelayotganligidan quvonamiz. Darslardan bo'sh vaqtlarimizda tengdoshlarim bilan maktabimiz kutubxonasi tomon oshiqamiz va bu biz uchun odat tusiga kirib qoldi.



Bir biridan qiziqarli, mazmun-ma'noga boy, ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz tarixiga oid kitoblarni mutolaa qilar ekanman, o'zimdagi o'zgarishlardan avvaligaxayron bo'laboshladim. Ko'pchilik oldida fikrimni ravon izhor eta olish, kelajagimdagi orzularimning ko'payotganligi, darslarimni o'zlashtirishdagi a'lo natijalardan to'g'risi yanada lol bo'laverdim. Kitob orqali ko'p ma'lumotlarga ega bo'lib, bilim darajam ortib borayotganligi ustozlarim e'tiroflarida ham sezildi. Yashasin!, dedim o'zimga o'zim. Kitob mening eng yaqin do'stimsan, deya hayqirgim keldi va buni ham uddaladim. Hech kimi yo'q xonada, balki qir adirlarda hayqirgandirsizda?,

degan hayol hammangizdan o'tganligi aniq. Yo'q, bunaqa emas, deb baralla ayta olaman. Buni sirini sizlar bilan bo'lishaman. Bunda ham kutubxonachi Nilufar opamlarning yordamlari katta bo'ldi. Ular tomonidan maktabimiz o'quvchi-yoshlari orasida o'tkazilayotgan turli xil kitobxonlik musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar asosiy turki bo'ldi. Ustozlarim va kitoblardan olayotgan bilimlarni sinab ko'rish maqsadlari men ham mazkur musobaqalar va tadbirlarda faol ishtirok eta boshladim.



«Jadidlar izidan» ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Tarix faniga qiziqishim sabab tanlovda ishtirok etish maqsadi tug'ildi. Tanlov mezonlari asosida shahar bosqichidan viloyat bosqichiga o'tdim va bu bosqichda faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdim. Maqsadlarimni to'g'ri yo'lga qo'ya olganim menga g'alaba olib keldi. Bu albatta judyam faxrli edi. Tadbir yakunida g'oliblarga so'z berilgan vaqtda, yuragimdagi hayqiriqni tilimga ko'chirdim. XXI-asr texnika asrida elektron kutubxonalar shakllantirilayotganligi, uning o'ziga yarasha afzalliklari haqida, biroq, bosma kitobni qo'lda tutib, uning takrorlanmas hididan va varaqlanganda quloqqa xush yoquvchi shitirlagan ovozidan bahramand bo'lgan holda kitobni o'qish kitobxonga, shu jumladan, o'zimga ham o'zgacha bir estetik zavq bag'ishlashini, tengdoshlarimni ham mutolaaga zavqidan bahramand bo'lishga chaqirdim. Tanlovdagi xulosalarim bilan yanada ko'proq kitob o'qishim, bilimlarga ega bo'lishim

nafaqat meni, balki kitobga oshno bo'lgan barcha yoshlarimizni yorug' kelajagiga ulkan zamin bo'la olishini xis qildim.



Ana endi navbat kitob va mutolaa orqali maktabimiz bilan qo'lga kiritgan yutuqlarimizga. Maktabimiz kutubxonachisi Nilufar opa boshchiligida kitobxonlik doirasida maktablararo tanlovlarda ishtirok etib faxrli o'rinlarni qo'lga kiritmoqdamiz. Jumladan, 2023-2024-o'quv yilida «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 6-«S» sinf o'quvchisi Ziyodaxon Odilova faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.



Yana bir «Eng kitobxon oila» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchimiz Zulxumorxon Tojiboyeva oilasi bilan faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari, «Eng faol kitobxon

o'quvchi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida yana Ziyodaxon Odilova faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Maktablar o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Eng kitobxon maktab» ko'rik-tanlovida kamina, 10-«S» sinf o'quvchisi Xolidaxon Qodirova, 8-«S» sinf o'quvchisi Oyshaxon Mirzaabdullayeva, 7-«S» sinf o'quvchilari Mubinoxon Qodirova, Ziyodaxon Odilova, Odinoxon Tillabayevalar faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdik. Hozirgi kunda «Maktabning eng faol kitobxon» ko'rik-tanloviga qizg'in tayyorgarliklar ketmoqda.



Bundan tashqari, kutubxonachi Nilufar opa To'rabekova tashabbusi bilan o'tkazib kelinayotgan kitobonlik aksiyalari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham yoshlarimiz orasida kitob va mutolla madaniyatini shakllantirishda zo'r samara berib kelayotganligini faxr bilan aytishim mumkin. Jumladan:

1.Kitobxon otalar haftaligi. Haftalik davomida o'quvchilarning otalari o'zlari o'qigan asarlarning tarbiyaviy ahamiyati, asarlarda yoritilgan voqea va hodisalarning hayotimizdagi o'rne haqida gapirib, oilaviy mutolaa qilishga targ'ib etmoqdalar. Bu esa oila muhitida kitobxonlikning shakllanishida yaxshi samara berishiga ishonaman.

2.Kitobxon muallif haftaligi. Bunda yurtimizda yashab ijod qilayotgan ijodkorlar, adiblar, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuv

kechalari, mushoiralar, adabiy musiqali kechalari, davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Tadbirning eng quvonarli jihati, uchrashuvlarda yosh ijodkorlarimiz ham o'z ijod namunalari bilan ishtirok etib, o'lkamiz adabiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan adiblarimizning maslahat va tavsiyalarini olishlariga, bu esa ijodida o'sishlariga yaxshi imkoniyat bo'lib qo'shilmoqda.

3. Ma'naviyatga yetaklovchi otaxonlar haftaligi. Jamiyatimiz hayotida o'z o'rniga ega, hozirda ham yoshlarimiz tarbiyasida ustozlarimizga beminnat ko'makchi bo'lib kelayotgan faxriy otaxonlarimiz ishtirokida davra suhbatlarining tashkil etilayotganligi yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, ota-onalarimizga, keksalarimizga hurmat va milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga izzat-hurmat tuyg'ularini yanada oshirishga xizmat qilyabdi. Oilada barkamol farzand tarbiyasiga erishish yo'llari va usullari haqidagi qimmatli fikr-mulohazalari, mazmunli ma'ruzalari o'z o'rnida ustozlarimizga asqotyabdi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

4. Farzandimga kitob sovg'a qilaman aksiyasi. Yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalash, oila muhitida kitobga bo'lgan mehnri yuksaltirish maqsadida tashkil etilayotgan mazkur aksiya menga judda yoqadi. Aksiyaga hamoxang "Xalqaro bolalar kitobi kuni" esa chinakam ma'naviyat bayramiga aylanib ketishi bilan zavqli o'tadi.

5. XXI-asr kitobxonining shaxsiy kutubxonasi tanlovi. Bugungi texnika asrida yoshlar orasida bosma kitoblar bilan bir qatorda elektron kitoblar ham mashhur. O'quvchi-yoshlar orasida kitob va mutolla rivojiga qaratilgan mazkur tanlovda shaxsan o'zim ham ishtirok etaman. Yuqorida, "Farzandimga kitob sovg'a qilaman" aksiyasi menga juda yoqadi, deya bejiz tilga olmagan edim, ota-onam tomonidan menga sovg'a qilinayotgan kitoblar orqali oilaviy shaxsiy kutubxonamiz zo'r shakllanib boryabdi. Bu esa meni yana bir tanlovda g'olib bo'lishimga turtki bo'lishga sabab bo'la oladi.

Maktabimiz kutubxonachisi Nilufar opa tomonidan o'tkazib kelinayotgan kitobxonlik aksiyalari, tanlovlar va tadbirlar bir-biriga uzviy

bog'liqligini ziyrak o'quvchi sezishi mumkin. Biri biridan qiziqarli mazkur tadbirlar biz o'quvchilarning dunyoqarashimizni yanada kengaytirishga, kelajakda maqsadlarimiz sari dadil odimlar tashlashimizga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, kitob o'qish ortidan men ham moddiy ham ma'naviy tomondan ko'plab yutuqlarga erishdim. Ma'naviy jihatdan dunyoqarashim kengaydi, fikrlash qobiliyatim, nutq madaniyatim ravojlandi. Men barcha XXI-asr yoshlariga kitob o'qishni tavsiya etaman. Zero, Prezidentimizning «Kitob o'qigan bola kechagi bola emas», degan fikrlariga o'zimning misolimda amin bo'ldim.



KITOBXONLAR QIZIQISHINI O'RGANISHNING AHAMIYATI, UMUMIY TALABLARI VA USULLARI



Dilafuz Karimova

Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi
Ilmiy-uslubiyat xizmati rahbari

Kitobxonlar qiziqishini o'rganish - bu zamonaviy kutubxonachilik, axborot xizmatlari va madaniyat sohasi uchun muhim yo'nalishlardan biridir. Bu faoliyat kitobxonlarning ehtiyojlarini aniqlash, ular bilan samarali muloqot qilish, axborot resurslarini optimallashtirish va o'quv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning ahamiyati:

Shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish: Har bir kitobxonning yoshi, kasbi, qiziqish doirasi, ma'naviy va ilmiy ehtiyojlari farq qiladi. Ularga mos xizmat ko'rsatish uchun ushbu ehtiyojlarni chuqur o'rganish zarur.

Kutubxona fondini shakllantirish: Qiziqishlarni o'rganish natijasida, talab qilinayotgan adabiyotlar xarid qilinadi va foydalanish samaradorligi oshadi.

O'quv va madaniy loyihalarni rejalashtirish: Tadbir, uchrashuv, kitob tanlovi, musobaqalar singari loyihalarni tashkil qilishda kitobxonlar

ehtiyojini hisobga olish ularning faolligini oshiradi.

Axborot xizmati sifatini oshirish: Zamonaviy foydalanuvchilar raqamli, multimediyaviy va interaktiv formatdagi axborotga qiziqish bildirishi mumkin – bularni aniqlash yondashuvni moslashtirishga yordam beradi.

2. Umumiy talablar:

Tadqiqot aniq maqsad va vazifalarga ega bo'lishi kerak.

Kitobxonlar segmentatsiyasi (yosh, jins, kasb, ta'lim darajasi bo'yicha ajratish) amalga oshirilishi lozim.

Maxfiylik tamoyiliga rioya qilish kerak – respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanadi.

O'rganish natijalari amaliy faoliyatda qo'llanilishi kerak – ya'ni faqat nazariy emas, balki amaliy natijalar beradigan yondashuv bo'lishi kerak.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganish – ularning kitob o'qishga bo'lgan ehtiyojlari, qaysi adabiyotni afzal ko'rishlari va o'qish odatlarini aniqlashdir. Bu jarayon bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Auditoriyani aniqlash

Kimlar kitob o'qimoqda? Yosh, jins, ta'lim darajasi, kasb va boshqa demografik ma'lumotlar bo'yicha kitobxonlarni toifalash.

2. Qiziqish sohasini aniqlash

Kitobxonlar qaysi mavzularga (masalan, tarixiy, badiiy, ilmiy-ommabop, psixologiya, biznes, fantastika va h.k.) ko'proq qiziqish bildirishadi?

3. O'qish manbalarini o'rganish

Kitobxonlar qayerdan kitob o'qiydi: chop etilgan kitoblar, elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn platformalar va boshqalar.

4. O'qish maqsadini aniqlash

Ular kitobni nima maqsadda o'qishadi: ma'rifat uchun, dam olish uchun, o'qish yoki ish uchun, shaxsiy rivojlanish uchun va h.k.

Quyida biz kitobxonlar qiziqishini o'rganishning usullari bilan tanishib chiqamiz.

1. So'rovnoma (anketalar) – eng keng tarqalgan usul; yozma yoki onlayn shaklda kitobxonlarga savollar berish orqali ularning afzalliklari aniqlanadi.

2. Suhbat (intervyu) – chuqurroq tahlil uchun samarali bo'lib, alohida kitobxonlar bilan yuzma-yuz suhbat shaklida o'tkaziladi.

3. Kuzatuv – foydalanuvchilarning kutubxonadagi xatti-harakatlari, kitob tanlash odatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi.

4. Statistik tahlil – foydalanilgan adabiyotlar soni, eng ko'p o'qilayotgan mavzular, kitobxonlar soni kabi raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish.

5. Test va viktorinalar – ayniqsa yosh kitobxonlar bilan ishlashda foydali bo'lib, ularning bilim darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fikr-mulohaza qutilari yoki onlayn formalar – kitobxonlar o'z taklif va mulohazalarini qoldirishi uchun imkoniyat yaratadi.

7. Ijtimoiy tarmoqlar orqali monitoring – foydalanuvchilarning onlayn faoliyatini tahlil qilish ham kitobxonlik qiziqishini ko'rsatadi.



Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning maqsadi va vazifalari

Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlar qiziqishini o'rganish axborot-kutubxona xizmatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kitobxonni axborot va adabiyotlarga bo'lgan talablarini aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Kitobxonlar talabini o'rganmasdan turib, ular uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, kasb-koriga oid hamda badiiy-falsafiy adabiyotlar turkumini ilmiy jihatdan aniq belgilash qiyin ish. Nashrdan chiqqan har bir adabiyot yoki turli axborotlar kitobxonlar talabiga to'liq javob berolmaydi. Kitobxonlar axborotlar va chop etilgan adabiyotlar ichida o'zlariga zarurini izlaydi. Ana shunday axborot va adabiyotlarni bilish va ular bilan o'z fondlarini to'ldirib borish kutubxonachilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, kitobxonlar qiziqishlarini bilishga bir qancha tashkilot va muassasalar ham doimo harakat qiladilar. Bular jumlasiga yozuvchilar uyushmasi, nashriyotlar, tahririyatlar, kitob savdosi muassasalari, matbuot, radio, televidenie va boshqalar kiradi. Albatta kitobxonlarni axborot va adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish muassasa va tashkilotlarni o'zlari bajaradigan vazifalariga ko'ra bo'ladi. Kitobxonlar qiziqishini o'rganish sohasi kelgusida mustaqil tarmoq bo'lishi tabiiy. Chunki bu soha bilan tarbiyachilar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar, sotsiologlar, psixologlar va axborot beruvchi barcha soha mutaxassislari

qiziqayotganligi bunga dalildir. Keyingi yillarda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni nazariy va amaliy taraqqiyoti kitobxonlar talabini o'rganish bilan chambarchas bog'langan. Shuni e'tiborga olib, barcha kutubxonalar kitobxonlar talabini sinchiklab o'rganishini keng ko'lamda tashkil etishlari zarur. Kitobxonlar talabini o'rganishning maqsadi ularni ilmiy va umummadaniy dunyoqarashini shakllantirish, umumta'lim va kasbiy mahoratini takomillashtirish, kitobxonlarni o'z-o'zini axloqiy, mehnat, huquqiy, estetik tarbiyalash uchun zarur axborotlar va asarlarni tanlash va ulardan ma'naviy kamolotlarini shakllantirish yo'lida foydalanishlarida yaqindan yordam berishdir. Kutubxonachi zarur axborot va kitobni tanlashda kitobxonga eng yaqin yordamchi, maslahatchidir. Demak, kutubxonachining, ayniqsa xizmat ko'rsatish xizmati xodimlarining faoliyati kitobxonlarga kerakli axborot va asarlarni tavsiya etishda eng faol tashkilotchi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun har bir kutubxonachi kitobxonlarga kerakli axborot va asarlarni tanlash va ulardan foydalanishda amaliy yordam ko'rsatib, ularning qiziqishi, ma'naviy ehtiyojini qondirishga harakat qilishi kerak. Buni amalga oshirish uchun esa kutubxonachi kitobxonlarning ijtimoiy, ishlab chiqarishdagi o'rnini, saviyasini, ularning ma'naviy talablarini, kasbi, bilimga qiziqish darajasini, estetik didi va qator boshqa omillarni mukammal o'rganishi zarur. Bu murakkab jarayonni tashkil etishga esa kitobxonlar qiziqishini muntazam o'rganib borishni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. Kitobxonlar kiziqishi sharoitga qarab shaxsiy, biror guruhni yoki jamiyatni qiziqishi bo'lishi mumkin. Ular mantiqiy o'zaro bog'langan. Jamiyat qiziqishidan guruh qiziqishi orqali shaxs qiziqishi aniqlanadi. Guruh qiziqishi zaminida guruhning o'qishga bo'lgan talabi yotadi. Masalan, biror oliy o'quv yurti fakulteti talabalari guruhining axborotga bo'lgan talabi shu guruhning barchasi uchun mutaxassisligiga oid o'qish uchun zarur bo'lgan talab hisoblanadi.

Guruhning qiziqishi kitobxonlarning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqadi. Bunga ta'sir etuvchi omillar ham mavjud: kitobxonning ma'lumoti, kasbi, ijtimoiy tuzum talabi, asarlarga berilgan baholar, ayrim marosimlar, kayfiyatlar va boshqalar. Bosma asarlarga va axborotlarga bo'lgan qiziqish haqiqiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Bularni farqini aniqlay bilish ahamiyatlidir. Vaqtinchalik, ya'ni shakllanmagan qiziqishni haqiqiy qiziqishga aylantirish kutubxonalar faoliyatidagi muhim tadbirlardan biridir. Vaqtinchalik qiziqishni tugatishda kitobxonlik didini kamol toptirish zarur shartlardan biri. Kitobxonlik didi o'ziga zarur adabiyotni tanlash qobiliyatini shakllanishida aks etadi. Umuman ilmiy asoslangan holda kitobxonlik qiziqishini shakllantirish juda murakkab masalalardan biridir. Insonni qiziqishi yagonalikni tashkil etmaydi. SHuni hisobga olib hayotiy talabni to'g'ri his qilgan holda bir necha sohaga oid qiziqishlar mustahkam bo'lishi mumkin. O'z navbatida qiziqishlar o'zaro bir-biri bilan o'rin almashmasligi mumkin emas. Qiziqishni adabiyot va axborot bilan muntazam ta'minlash uni so'ndirmaydi, aksincha yanada yuksalishga asos bo'ladi.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganish usullari

Kitobxonlar qiziqishini maqsadli o'rganishni tashkil etishning asosi uni o'rganish uslubini yaxshi bilishdir.

Zarur ma'lumotni olish uchun kitobxonlar qiziqishini o'rganish usulini ham to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir.



Kitobxonlar qiziqishini o'rganish usullariga asosan bevosita o'qish jarayonida ro'y beradigan ko'rinishlarni bilish usuli kiradi. Uslub muayyan aniq jarayonda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlashning muntazam tartibidir. Kutubxonachilar kitobxon haqidagi ma'lumotni olish usulini ko'r-ko'rona qabul qilmasliklari kerak. Zero, uslubni tanlash hamma vaqt qo'yilgan vazifalarning maqsadiga hamda uning xususiyati, yo'nalishi mazmuniga bog'liq bo'ladi. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda quyidagi usullar qo'llaniladi: mantiqiy usullar, statistik, kuzatish, suhbat, jamoa bo'lib muhokama qilish, so'rovnoma, og'zaki so'rash, tajriba, hujjatlar tahlili, kitobxon tarjimai holi, kitobxon mulohazasi va boshqalar. Kutubxona sharoitida ular o'ziga xos qator xususiyatga ega bo'lishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda uslublar asosan ikki qismga bo'lib o'rganiladi. Ya'ni, kitobxonlar qiziqishini o'rganishning umumilmiy usullari va maxsus usullari.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning umumilmiy usullari. Turli fan sohalarida qo'llash imkonini beruvchi usullar jamlamasiga umumilmiy usullar deb ta'rif berilgan. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning keng tarqalgan umumilmiy usullari asosan quyidagilardan tashkil topgan: statistik, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, intervyu, hujjatlar tahlili, tajriba va boshqa usullarni kiritish mumkin. Maxsus usullarga kitobxon va kitob formulyarini, bajarilgan bibliografik ma'lumotlarni va talab varaqalarini tahlili usulini kiritish mumkin. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning muhim usullaridan biri bu statistik usuldir. Uni asosiy qonuniyatlari aniq ma'lumotni zaruriy munosabat bilan taqqoslash uchun imkoniyat yaratishidir. Bu usul yordamida kitobxonlar miqdori va ularga berilgan adabiyotlar, kitobxonlarni kutubxonaga qatnashi, kitobxon talabidagi o'zgarishlarning xarakteri kuzatiladi. Bu usul asosida kutubxonachi kitobxonlar qiziqishi haqida umumiy xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Statistik usul hisobot ma'lumotlariga asoslanib tahlil qilinadi. Bu usul

o'ziga xos manbani kutubxona kundaligidan va yillik statistik hisobotdan oladi. Ikkilanishlar tug'lsa uni aniqlash maqsadida yozma hisobotdan ham foydalanadi. Statistik tadqiqot va tahlil etish, kutubxona va kitobxonlar talabiga tavsifnoma berish uning o'ziga xos xususiyatidir. Bu usulni tadbiiq etish asosiga olingan ma'lumotlar kelgusida qaysi tarmoq adabiyotlarini targ'ibotiga ko'proq e'tibor berish zarurligini aniqlaydi.

Kuzatish usuli. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda kuzatish usuli o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu usul murakkab, mashaqqatli bo'lishidan qat'iy nazar, sermahsul, kutubxonachidan kitobxonlar bilan ishlashni va sezgirlikni, har bir jarayonga ijodiy yondoshishni talab qiladi. Kuzatish asosiga kutubxonachi kitobxon haqida ishonchli ma'lumotlarni qo'lga kiritadi.



Kuzatish aniq maqsad asosida tashkil etilgan bo'lib, ma'lum belgilangan vazifani aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Shu sababli kutubxonachi ilgariidan nimani rejalashtirgan bo'lsa, kerakli ma'lumotni to'plashga imkon beradigan rejani tuzadi. Reja va uslub qanday ma'lumotlarni kuzatish asosida hisobga olish zarurligini belgilab beradi, ya'ni kuzatish doirasini aniqlaydi. Kuzatish uslubidan foydalanish kutubxonachining kundalik faoliyati jarayonida ro'y berib boradi. Kutubxonachi ma'lum jarayonlar bosqichida kitobxonlar bilan bevosita bog'lanadi, ya'ni muloqot asosida shakllangan fikrlarni dastlabki ma'lumot

shakllangan fikrlarni dastlabki ma'lumot sifatida hisobga olib boradi. Haqiqatdan ham hayotiy tajriba shuni ma'lum qiladiki, kuzatishni ahamiyati yuksak, ammo uni shunday tashkil etish kerakki, tahlil uchun zaruriy manbani olish imkoniyati yaratilsin. Bu jarayonlar tabiiy kechadi. Kitobxonaga tazyiq o'tkazilmaydi. Bu usul qo'llanilganda kutubxonachi kitobxon haqida haqqoniy ma'lumot oladi. Kuzatishni yana bir xususiyati shundan iboratki, kitobxonlar uchun adabiyotlar targ'iboti samaradorligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Kuzatish usuli asosida o'tkazilgan ommaviy tadbirlar samaradorligini ham aniqlash mumkin. Kuzatish - katta imkoniyatlarga ega. Kitobxonni kutubxonaga a'zo qilishda, kitobxonni fondan adabiyot tanlashida, katalog va kartotekalardan foydalanishida, kitob olish va kitobni qaytarish davrida kuzatish amalga oshiriladi. Shu bilan birga bibliografik qo'llanmalardan foydalanish jarayonida ham shu bosqichdagi harakat va munosabat kuzatish obekti bo'ladi. Bu bilan cheklanib qolmasdan kitobxon o'quv zalidan foydalanganda, turli xil bibliografik so'rovlar bilan murojaat etganda kitobxonni o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi, o'qish madaniyati aniqlanadi. Kuzatish usulini qo'llaganda kitobxon kuzatish manbai ekanligini sezmagani maqsadga muvofiqdir. Kuzatish uzoq muddatga mo'ljallangan ham bo'lishi mumkin. Kuzatishni bir necha bor qayta - qayta takrorlash imkoniyati mavjud. Bundan maqsad, olingan ma'lumotlarni qay darajada to'g'riligini aniqlash. Kuzatish muddati u olti oydan bir yilga mo'ljallangan bo'lishi ham mumkin. Kuzatishni zarur sharti uni doimo yozib borilishi, kuzatish asosida chiqilgan xulosalar alohida kundalikda aks ettirilib boriladi. Kuzatish muddatida to'plangan ma'lumotlar nihoyasida tahlil etilib nazariy xulosa chiqariladi.

Suhbat usuli. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda suhbat usuli ham kutubxonachilar uchun zarur manbani to'plash va o'rganish, uni tahlil etish imkoniyatini beradi. Kutubxonachi va kitobxon o'rtasida suhbatning turli usullari takrorlanib turadi. Kutubxonachining kitobxonni

kutubxonaga a'zo qilishdagi, adabiyotni tavsiya etish, o'qilgan adabiyotlarni qaytarib olish bosqichidagi suhbatlari shular jumlasidandir.



Kutubxonachi kitobxonni kutubxonaga a'zo qilar ekan, u haqidagi dastlabki ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. Bu uning kelgusida olib boradigan ishlarini yo'nalishini belgilaydi. Suhbat keyinchalik unga adabiyotlar tavsiya etish, axborot berish hamda uning qiziqishini o'rganish usuli sifatida amalga oshiriladi. Suhbatning muvaffaqiyatli kechishi asosan kutubxonachining mahoratiga bog'liq. Suhbat uchun avvaldan reja tuziladi. Lekin uning yo'nalishi suhbat davomida o'zgarib turishi mumkin. Suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi uning qanchalik qizg'in va jonli o'tishiga bog'liq. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kutubxonachining ishi birgina suhbat o'tkazish bilan tugamaydi, u kitobxon bilan suhbat o'tkazar ekan, kitobxonning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini, ijtimoiy va boshqa intilishi, ishtiyoqi, bilim darajasini, qaysi mavzudagi kitoblarni o'qishni yoqtirishini, kitob haqida fikr yuritishi qay darajada ekanligi, kutubxonasi bormi, singari ma'lumotlarni olishga intiladi. Ana shularga asoslanib kitobxonni qiziqishini rivojlantirish yo'llari belgilanadi va muayyan xulosaga kelinadi. Suhbatni maqsadga muvofiq tashkil etish, kitobxonda o'qigan kitobi haqidagi mulohazalari bilan fikrlashish, kitobning unga ta'siri, muallifning qaysi fikrlariga qo'shiladi yoki qo'shilmaydi kabilari haqidagi mulohaza yuritish istagini yuzaga keltiradi.



Kitobxon bilan qiziqishlarini o'rganish bo'yicha suhbat

So'rovnoma usuli. Kitobxonlar qiziqishini o'rganishda so'rovnoma usuli keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. So'rovnoma usuli kitobxonni har tomonlama o'rganish, ichki dunyosini bilish usulidir. So'rovnoma usuli kitobxonlar qiziqishini yozma so'rash tarziga asoslanadi. Shu sababli kitobxonlar berilgan savollarga asoslanib o'z fikrlarini bayon qiladilar. Yozma ravishda kitobxonlar so'ralar ekan, ulardan to'plangan ma'lumotlarga asoslanib xulosalar chiqariladi. To'plangan ma'lumotga asoslanib jamoatchilikning fikri, adabiyotga munosabati va qiziqishi haqida nazariy xulosalar ilgari suriladi. So'rovlar sodda, ravon, aniq jumlar bilan yozilishi va javob berishga qiyinchilik tug'dirmaydigan bo'lishi kerak. Shu bilan birga ma'lumotlarni o'rganishga ham qulay bo'lmog'i zarur shartlardan biridir. Savollarni yashirin usulidan kengroq foydalanish, ya'ni ha yoki yo'q deb javob beriladigan savollarni ko'proq qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ochiq savollar bo'lsa ularni tagiga chizish bilan ham chegaralash mumkin. So'rov usuli orqali kitobxon haqida ham ma'lumot to'plash ijobiy. Kitobxon to'g'risida ma'lumot bo'lmasa uni tartibga keltirishda keyinchalik qiyinchilik yuzaga keladi. So'rov usuli asosida o'rganilayotgan voqea yoki hodisa haqiqat yoki haqiqatga yaqin deb qaralmog'i maqsadga muvofiqdir. Shu sababli tadqiqotchi savollarni shunday tuzmog'i kerakki, savollar bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lishi shart. Shundagina tadqiqotchiga aniq

fikrni bilish uchun sharoit yaratiladi. Har bir so'rov varaqasida yagona kitobxonni fikri aks etadi, faqatgina ko'plab so'rov varaqalarini o'rganish aniq xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. So'rovnoma usulini ikkinchi turi og'zaki so'rash. Bu usulda ikki shaxsni o'zaro muloqoti maqsadga muvofiq bo'lgan taqdirda ijobiy bo'ladi. Og'zaki so'rash ikki shaxsni bevosita jonli suhbatida asosida shakllanadi. Izlanuvchi savol beradi, kitobxon javob beradi. Og'zaki so'rov yozma so'rashga nisbatan bir muncha ustunlikka ega, chunonchi tadqiqotchi bevosita kitobxon bilan muloqotda bo'ladi va uni kuzatadi. Og'zaki so'rash o'ziga xos suhbatga o'xshaydi, lekin bunda faqat so'ralayotgan kitobxon faol bo'ladi, kutubxonachi savol beruvchiga aylanadi. Og'zaki so'rash va kuzatish o'ziga xos uslubda birlashib ketadi. Savol beruvchi so'ralayotganning javobini tinglab qolmasdan undagi o'zgarishlarni ham kuzatadi. U savollarni oydinlashtiradi, zarur bo'lsa aniqlik kiritadi. Bularni barchasi kitobxonning qiziqishlarini o'rganishga qaratilgan muhim omillardir.



Onlayn va offlayn so'rovnomalarni jarayoni

Tajriba usuli. Bu usul kutubxonashunoslik izlanishda axborot xarakteriga ega. Tajriba usuli murakkab amaliyot va hisoblashlar asosida turli guruh kitobxonlari qiziqishlari haqida ma'lumot beradi. Tajriba usuli kitobxonlarni talabini o'zgarishi, adabiyotlarga munosabati, ularni rivojlanishi, kelgusida kitobxonlar bilan ishlash yo'llari haqida fikrlash imkoniyatini beradi. Tajriba o'tkazuvchi kelgusida kitobxonlar o'qishini rivojlanishini barcha imkoniyatlarini aytmasada, ammo ayrim qonuniyatlarga amal qilish zarurligi g'oyasini ilgari suradi.

Kitobxon tarjimai holi. Bu usul so'nggi yillar tajribasi bo'lib hisoblanadi. Kitobxon tarjimai holi murakkab usullardan biri bo'lib kitobxonni qiziqishini kamolotini aks ettiradi. Keyingi uch yillikda kitobxonlardan tushgan xatlar, adabiyotlar haqidagi fikr-mulohazalar kitobxon tarjimai holiga asoslanib o'rganishga asos bo'ladi. Kitobxon tarjimai holi - bu kitobxon hayoti va faoliyatida matbuot asarlarini va kutubxonani ahamiyati haqidagi axborot. Ommaviy kutubxona kutubxonachilari uzoq yillardan beri kutubxonadan foydalanadigan, faol kitobxonlardan bunday ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega. Kitobxonni tarjimai holi uni shaxsiy rivojlanishida kitobni rolini aniqlash imkoniyatini beradi. Kitobxondan aniq, zarur, tahlil etish uchun yaroqli manbani olish uchun zarur ma'lumotlarni aks ettiradigan tayyor tarjimai hol jadvalini ham taklif qilishi mumkin. Kitobxon tarjimai holini yozilishi nuqtai nazaridan erkin tuzilgan savollar asosida, kitobxonni o'zi yoki kutubxonachi tomonidan so'zma-so'z yozib olingan bo'lishi mumkin.

Kitobxon mulohazasi. Bu usul boshqa usullardan o'zini ommaviyligi bilan ajralib turadi. Kitobxonlar muloxazasi bilan madaniy-ma'rifiy muassasalar, yozuvchilar uyushmasi, kitob savdosi, nashriyotlar, radiotelevideniya, gazeta va jurnallar taxririyaatigina emas balki boshqa kasb egalari ham qiziqadilar. Kitobxon mulohazasi jamoatchilik fikrini bayon qiladi. Biror mavzu haqida ommani fikrini bilish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Barcha kitobxonlar adabiyotlar haqidagi mulohazalarini to'plashga xarakter

qiladilar. Kitobxon mulohazasi yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Ammo kutubxonachilar uchun maqbul varianti kitobxonlarni yozma muloxozalaridir. Kitobxonlar tomonidan berilgan mulohazalarni soni emas, aksincha asoslab berilgan fikrlari zarur. Berilgan mulohazani ijobiy va salbiyga ajratish bilan umumlashtirish mumkin. Bir yo'la ko'plab kitobxonlardan to'plangan mulohaza asosiga guruhni asarga yoki biror mavzuga munosabatini bilish mumkin. Mulohaza natijalaridan adabiyotlar targ'ibotida foydalanish mumkin. Nazariy xulosa chiqarish uchun ko'plab kitobxonlarni mulohazasini to'plash maqsadga muvofiqdir. Kitobxonlar mulohazalarini matbuot sahifalarida yoritish maqsadga muvofiq. Respublikamizning barcha kutubxonalari bu usuldan foydalanadilar. O'tgan davrlar mobaynida Mirmuhsinning "Umid", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasida", Said Ahmadning "Ufq", O'.Usmonovning "Girdob" va boshqa asarlari haqida kitobxonlar mulohazasi to'plangan bo'lsa, o'tgan yillar davomida "Temurnoma", O.Yoqubovning "Ko'hna dunyo", "Ulug'bek xazinasini", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston" va boshqa asarlari haqida mulohazalar to'planadi.

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning maxsus kutubxonashunoslik usullari

Kitobxonlar qiziqishini o'rganishning maxsus usuli u yoki bu umumilmiy usullardan kutubxonaning o'ziga xos xususiyatiga qarab ma'lumotlarni hisobga olish, yig'ish va tahlil qilishi bilan farqlanadi. Maxsus kutubxonashunoslik usullariga kitobxon va kitob formulyarini, bajarilgan bibliografik ma'lumotlarni va talab varaqalarini tahlilini kiritish mumkin.

Kitobxon formulyarini tahlil qilish usuli

Kitobxon formulyarini tahlil qilish maxsus usullar turiga kiradi. Formulyarga asoslanib kitobxonlarni turli fan tarmoqlariga oid adabiyotlarni o'qishlarini o'rganish mumkin. Bu usul asosan kitobxon formulyaridan

foydalanadigan kutubxonalarda qo'llaniladi. Biroq, barcha formulyarni tahlil qilish mumkin emas, shu sababli kutubxonachilar kitobxonlarini qiziqishini o'rganishda biror bir guruhni tanlab olishi maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina kutubxonalarda formulyar kitobxon haqida ma'lumot to'plovchi asosiy manba hisoblanadi. Formulyarda kitobxon haqida ma'lumot bo'lishi bilan birqatorda, berilgan adabiyotlar fan sohalari bo'yicha hisobga olinadi. Shu bilan birga ba'zi ma'lumotlar formulyarda hisobga olinmaydi, masalan, qanday adabiyotlarni kitobxonni o'zi tanlaganligi yoki kutubxonachini tavsiyasi bilan ko'rgazmadan olganligi va boshqalar. Formulyardagi ma'lumotlar kitobxonni o'qishini mazmunini bildiradi. U orqali kitobxon talabi, o'qish natijalarini, o'qilgan adabiyotga munosabatini bilish mumkin emas. Bunday muammolarni hal etish uchun tadbirlar qo'llash mumkin, masalan: kutubxonachi tavsiyasi bilan olingan adabiyotni inventar raqami tagiga chizikcha tortish, kitobxon bilan suhbat, kuzatish natijasi va boshqa ma'lumotlarni yozib borish mumkin. Ba'zi kutubxonalarda ayrim guruh kitobxonlar formulyariga uni o'qishini o'rganish maqsadida maxsus belgi qo'yiladi. Kitobxon formulyari yakka tartibda yoki guruhli tahlil qilinadi. Formulyaning yakka tartibdagi tahlili ayrim kitobxonlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, kelgusida unga axborot berishga zamin hozirlaydi. Formulyaning guruhli tahlili ma'lum guruh kitobxonlarni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Guruhli tahlilning vazifasi mavzu bo'yicha ayrim asarni guruh tomonidan o'qilishi hamda bir yo'la turli fan tarmoqlariga doir va boshqalar haqida ma'lumot olishdan iboratdir. Shu bilan bir vaqtda u yakka tartibdagi tahlilni muayyan to'ldiradi. Formulyarni guruhli tahlili tadqiqot qilinayotgan jamoaning qiziqishini tasavvur etish imkoniyatini beradi.

Kitob formulyarining tahlili. Kitob formulyarining tahlili – kitobxonlar orasida kitob o'qilishini o'rganadigan maxsus usuldir. Kitob formulyari ommaviy kutubxonalarda kitobning berilishini hisobga oladi. O'z navbatida bir qator kutubxonalar bu usulni kitobni o'qilishini tadqiq

qilishda foydalanadilar. Kitob formulyarining tahlili kutubxonachiga o'ziga xos ma'lumot beradi. Ma'lum muddatda kutubxonachi biror bir muallifning yoki mavzuga oid asarlarning qanday o'qilayotganini bu usullar yordamida tez va oson aniqlab oladi. Asarni o'qilish darajasini, ijtimoiy qiymatini o'rganadi. Kitob formulyaridan yil davomida mazkur kitob olingandan beri necha marta o'qilganligini ham aniqlab olish mumkin. Agar kitob tokchada harakatsiz yotgan bo'lsa, sababini aniqlash va choralarni ko'rish kerak bo'ladi. Kutubxonachilar uchun zarur bo'lmagan, harakatsiz yotgan asarlarni depozitar kutubxonalarga o'tkazish yaxshi natija beradi. Ko'p o'qiladigan asarlar aniqlanganda kutubxonachilar fondini kelgusida shunga o'xshash adabiyotlar bilan to'ldirishni rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Kitobxonlarning talabnoma varaqalarini tahlil qilish. Kitobxonlarning talabnoma varaqalarini tahlil qilish bu kitobxon so'rovini kuzatib borishning maxsus usuli hisoblanadi. U mustaqil usul sifatida talabnoma varaqlaridan foydalaniladigan kutubxonalardagina foydalaniladi. Talabnoma varaqasini tahlil uchun ikkiga ajratiladi: So'ralgan adabiyotni bajarilishi ya'ni bajarilgan talabnoma varaqasi va so'ralgan adabiyotga rad javobi berilgan varaqaga. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi hamda kitobxonning adabiyotga bo'lgan talabini yo'nalishini belgilaydi. Bajarilgan talabnoma varaqasi kitobxonlarni qaysi adabiyotlardan ko'proq foydalanganligini aniqlaydi – kelgusida fondni qanday adabiyotlar bilan to'ldirish zarurligi haqida tasavvur qilishga zamin yaratadi. Eng ko'p so'ralayotgan asarlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Ikkinchisi, qanday sabablarga binoan kitobxon adabiyotni o'qilmaganligini aks ettiradi. Bundan ma'lum bo'lgan sabablarni o'rganish asosida yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Tahlil natijalariga qarab muammoni bartaraf etish yo'llari belgilanadi. **Ma'lumot-bibliografik ishlarni tahlil qilish usuli.** Bu kitobxonlar qiziqishini o'rganishda muhim usullardan biri bo'lib, uning asosida kitobxonlarning bibliografik so'rovlari,

kitobxonlarni matbuot asarlarga qiziqishi, ayrim manbalarni izlashi, biror mavzu yoki ayrim fan sohasiga oid adabiyotlardan xabardor bo'lish istagi aniqlanadi. Ma'lumot – bibliografiya ishlarining hajmi va uni hisobga olish ishlari turlicha. Masalan, ommaviy kutubxonalarda ma'lumot bibliografiya ishlari kutubxona kundaligining maxsus bo'limida hisobga olinsa, yirik kutubxonalarning bibliografik bo'limida va katalog zallarida maxsus maslahatchi kutubxonachilar tomonidan hisobga olinib, bajarish yo'llari belgilanadi. Bibliografik so'rovlar maxsus blankalarda hisobga olib boriladi hamda ularning bajarilishi nazorat qilinadi.



Quyida kitobxonlar qiziqishini o'rganishning onlayn va offlayn usullariga misol keltiramiz

So'rovnoma namunasi (oddiy shakl):
Sizni yaxshiroq xizmat bilan ta'minlash uchun quyidagi savollarga javob bering:

1.Yosh toifangiz:

- 12–18 yosh
- 19–25 yosh
- 26–40 yosh
- 40+ yosh

2.Qaysi turdagi adabiyotlarni ko'proq o'qiysiz? (bir nechta javob tanlashingiz mumkin):

- Badiiy adabiyot (roman, hikoya)
- Ilmiy adabiyot
- Biografiya / tarjimai hol
- O'quv adabiyotlari
- Diniy adabiyot
- Jurnallar, gazetalar
- Elektron kitoblar

3.Siz uchun kutubxonada nimalar muhim?

- Yangi kitoblarning mavjudligi
- Tinch muhit
- Internet/Wi-Fi mavjudligi
- Elektron resurslar

4.Kitoblarni qayerdan o'qishni afzal bilasiz?

- Kutubxonadan
- Uyda / mobil qurilmadan
- Onlayn platformalardan (Z-Library, Google Books, ijtimoiy tarmoqlar)
- Boshqa _____

5.Taklif va fikrlaringiz (ixtiyoriy): _____

So'rovnoma yana boshqa mavzularda savollar javoblari bilan qo'yilishi mumkin. So'rovnoma o'tkazilgandan so'ng javoblari tahlil qilinib, natijasi o'rganiladi.

Bugungi kunda yoshlar, xususan, talabalar orasida kitobxonlik madaniyatining qay darajada shakllanganligini aniqlash hamda ularning adabiyotga bo'lgan qiziqishini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, qaysi adabiy janrlar ko'proq o'qilayotganini aniqlash, zamonaviy talabalar didi va intellektual ehtiyojlarini tushunishda muhim o'rin tutadi.

Shu maqsadda, onlayn so'rovnoma o'tkazilib, talabalar o'rtasida eng ko'p o'qiladigan adabiy janrlar aniqlandi va quyidagi tahliliy natijalarga erishildi.

Quyida Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi tomonidan kitobxonlar qiziqishini o'rganishning onlayn va offlayn tarzda 2025-yilning 1-choragida o'tkazilgan so'rovnoma tahlilini havola etamiz.

Manzil: Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi

Maqsad: Talabalar o'rtasida eng ko'p o'qilayotgan adabiy janrlarni aniqlash

O'rganish usuli: Onlayn so'rovnoma

Ishtirokchilar soni: 500 nafar talaba (turli OTMlardan)

Savollar soni: 10 ta savol (tanlovli, ochiq va ko'p variantli)

1. Adabiy janrlar bo'yicha afzalliklar

Adabiy janr	Tanlanganlar foizi (%)
Badiiy fantastika	28%
Detektiv	22%
Romantik	18%
Psixologik drama	12%
Tarixiy romanlar	10%
Poeziya	6%
Biografiyalar/memuarlar	4%

Izoh: Badiiy fantastika va detektiv janrlar eng ko'p o'qiladigan janrlar qatoriga kirgan. Bu talabalar orasida sarguzasht, intriga va tasavvur kuchini oshiruvchi asarlarga qiziqish yuqoriligidan darak beradi.

2. Kitoblarni o'qish manbalari

55% – bosma kitoblar
30% – elektron kitoblar (PDF, mobil ilovalar)
10% – audiokitoblar
5% – boshqa (bloglar, fanfiklar va h.k.)

3. Kitob o'qish chastotasi

Har kuni o'qiydi – 30%
Haftasiga bir necha marta – 45%
Oyda bir marta – 15%
Juda kam yoki umuman o'qimaydi – 10%

Tahlil va muhokama:

Tahlil natijalariga ko'ra, talabalar orasida eng ko'p o'qiladigan janrlar — badiiy fantastika va detektivlar bo'lib, bu o'quvchilarning voqealar rivojiga tez jalb bo'lish istagi va hayol kuchiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi. Romantik va psixologik janrlar ham talabalar uchun dolzarb bo'lib, ular shaxsiy his-tuyg'ular, munosabatlar va ichki kechinmalarni aks ettiruvchi asarlar orqali o'zini anglashga intilishadi.

Chora-tadbirlar:

Talabalarning kitobxonlik qiziqishini rag'batlantirish uchun aynan ular ko'proq o'qiydigan janrlarda zamonaviy asarlar tarjimai va mahalliy mualliflar ijodi hamda yangi badiiy kitoblar bilan Kutubxona fondini boyitish;

Elektron resurslarga alohida e'tibor qaratilishi;

Yozuvchi-shoirlar bilan bilan uchrashuvlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

So'rovnoma tahlili natijalari Axborot-kutubxona ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga taqdim etildi va direktor o'rinbosari tomonidan Axborot-kutubxona fondlarini jamlash xizmati rahbariga amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar va vazifalar yuklatildi.

Xulosa

Kitobxonlar qiziqishini o'rganish juda muhim jarayon bo'lib, u bir nechta muhim natijalarni beradi. Quyida bu jarayonning asosiy ahamiyatlari keltirilgan:

- Muallif va nashriyot uchun yo'nalish berish
 - Kitobxonlar nimalarga qiziqishi, qaysi mavzularni afzal ko'rishi ma'lum bo'lsa, mualliflar ana shu yo'nalishda asarlar yozishi mumkin;
 - Nashriyotlar talab yuqori bo'lgan mavzularda kitoblar nashr etib, moliyaviy foyda va muvaffaqiyatga erishadi.
- Kitobxonlar bilan samarali muloqot
 - Qiziqishlarni bilish orqali kitobxonlar bilan yaxshi aloqa o'rnatiladi. Bu ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi;
 - Klublar, uchrashuvlar, taqdimotlar shu qiziqishlar asosida tashkil etiladi;
 - O'quvchilarning ma'naviy va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi;
 - Kutubxona faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Kitobxonlar qiziqishini o'rganishdagi zamonaviy usullar / Yunusov B. - Toshkent : Kutubxona nashri, 2018.*
- Kitobxonlar qiziqishini tahlil qilish / Ibragimova Z. – Samarqand : Axborot va kutubxona texnologiyalari markazi, 2020.*
- Kitobxonlarning o'qish madaniyati va qiziqishlarini o'rganish usullari / Qudratova M. – Toshkent : Nasha Vuzar, 2017.*

QALAM AHLI USTOZI

Farid Usmon bilan suhbat

Suhbatdosh: To'liqin Siddiq



Farid Usmon O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir, dramaturg. Do'stlik" ordeni sohibi.

"Yoshlik g'azallari", "Navosiz navo", "Ruh bulbuli", "Jon qushi", "Yangi oy", "Vaqtichog'lik gullari", "Meni sev", "G'ildirakli uy", "Hayot va hayol", "Topganlarim" kabi kitoblar va she'riy to'plamlar sohibi.

To'liqin Siddiq: - 80 yil bir lahzada o'tib ketdi, deysizu, ammo u katta bir davrni o'zida qamrab olgan. Hayot pastu-balandliklardan iborat. Umringiz davomidagi eng baland, eng qadrli cho'qqini eslasangiz kerak?

Farid Usmon: - Albatta. Bunday cho'qqilar hayotimda, ijodimda bir necha bor bo'lgan va ular doim yodimda. O'rta maktabni tamomlab, pedagogika instituning filologiya fakultetiga kirish imtixonlaridan o'tgach, talabalik guvohnomasiga ega bo'lganim, taxsil olgan kunlarimni umrimning eng qadrli damlari deb bilaman. Bizlarga o'sha davrning katta olimlari Xoshimjon Razzoqov, Faxriddin Isoqov, Nabi Qobulov, Galima Musina, Vosid Sa'dulla kabi tilshunos va adabiyotshunos olimlar saboq bergan. Ijodiy muhitda G'anijon Abdullayev,

Ulfat kabi taniqli shoir va mutafakkurlar bizga o'z ta'sirini o'tkazishgan.

To'liqin Siddiq: - Ijodingizda yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan paytlaringizni bilamiz. Nega endi eng baland cho'qqi talabalik yillarim edi, deysiz?

Farid Usmon: - Chunki u hayotimda burilish davri bo'lgan. Otam savdo sohasida mehnat qilib, kimningdir firibgarligi tufayli qamalib ketgandi. Men Andijon shahridagi 14-umumta'lim maktabining kechki ishchi yoshlar bo'limida o'qish bilan birga kunduzi "Elektrovdigatel" zavodida yordamchi tokar bo'lib mehnat qilardim. Institut adabiyotga qadam tashlashimga poydevor bo'lgan.

To'liqin Siddiq: - Talabalik yillaringizga qadar she'r yozarmidingiz?

Farid Usmon: - Yozganman. Maktabda til va adabiyot o'qituvchimiz Isomiddin Zokirov chinakam professional pedagog edi. U bizga mumtoz adabiyot haqida atroflicha bilim berishga harakat qilardi. O'sha yillari hazrat Alisher Navoiyning ko'p g'azallarini yod olganman. Umuman Furqat, Zavqiy, Muqumiyy, Mashrab kabi klassik shoirlar ijodiga qiziqib qolganman. O'zim ularga taxlit qilib she'rlar yozganman. Ammo she'rlarim ancha xom edi. Aslini olganda har bir shoir uch bosqichni boshidan o'tkazadi. Dastlab yetuk ijodkorlarga tahlit qiladi. Keyingi bosqichda o'z ijodiy yo'lini qidiradi, so'ngra puxta she'rlar yoza boshlaydi. O'rta maktabda o'qib yurgan chog'larimdagi she'rlarim yetuk ijodkorlarga tahlit qilishdan iborat edi.

To'lg'in Siddiq: - Ommaviy axborot vositalarida dastlab qaysi she'ringiz chop etilgan?

Farid Usmon: - Mumtoz adabiyotga qiziqishim kuchliligi uchun aruz vaznda g'azallar yozishni mashq qilardim. Institutimiz devoriy gazetasida "Dilbarim, yodingda tut..." deya boshlanadigan g'azalimning o'rin olganligi xozirgiday yodimda. Vaholanki kursdoshlarim orasida keyinchalik mashhur ijodkorlar bo'lib tanilgan Xalima Qoraboyeva, Mukarrama Murodova, O'smonjon Shukurov, Mirzakarim Pirmatov kabi iqtidorli yoshlar bor edi. Shu o'rinda meni katta adabiyot sahnasida tanilishimga dahldor bo'lgan taniqli jurnalist va yozuvchi Mirzakarim Pirmatovni alohida tilga olmoqchiman.

1966-yili Erkin Voxidovning bir turkum g'azallari "Sharq Yulduzi" jurnalida bosilib chiqqach, mamlakatimizda g'azal janriga bo'lgan qiziqish ortib ketdi. Kursdoshim Mirzakarim "Yosh lelinchi" respublika gazetasi tahririyatida xodim bo'lib ishlardi. U menga "– Sen ham aruzda yozasan. G'azallaringni olib kel, gazetamizda e'lon qilamiz", - deb qoldi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay yoshlar gazetasida men haqimda annotatsiya bilan "Oq yo'l, Farid!" rukni ostida she'rlarim chop etildi. Keyinchalik u meni o'sha paytda "Yosh gvardiya" nashriyotining bosh muharriri, taniqli

shoir Erkin Voxidov bilan uchrashtirdi.

To'lg'in Siddiq: - Erkin Voxidov sizga ustozlik qilganligini bilamiz. Ana shu uchrashuv haqida to'xtalsangiz.

Farid Usmon: - Erkin aka g'azallarimni o'qib, qoniqish xosil qildi. Qo'lga qalam olib tuzatishlar kiritdi, kamchiliklarini tushuntirib, ularni tahlil qilish zarurligi haqida maslahatlar berdi. She'rlarimni xali ancha xom ekanligini angladim. Ustoz belgilagan kamchiliklarni to'g'rilab, deyarli yarim yil o'tgach, Toshkentga olib bordim. Erkin aka g'azallarimdan o'ntasini tanlab oldi va "G'ofur G'ulom" nashriyotida tayyorlanayotgan "Yoshlik" "bayozi" ga tavsiya qildi. Tanlangan she'rlarimning barchasi bayozda chop etilishi o'zimga bo'lgan ishonchimni mustahkamladi. Keyinchalik ham ustozning o'g'itlari mening ijodkor sifatida shakllanishimda muhim omil bo'ldi.

To'lg'in Siddiq: - Moskvadagi M. Gorkiy nomli ikki yillik adabiyot kursida tahsil ko'rganingiz ham ijodingizga ijobiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa kerak?

Farid Usmon: - Albatta. Adabiyotga faqat O'zbekiston kursidan emas, jahon miqyosida qaray boshladim. Shekspir, Gyote, Pushkin, Tolstoy, Balzak, Tagor, Xemenguey, German Gesse, Chexov, Mopassan, Sholoxov kabi jahon adabiyoti ustunlarini qaytadan kashf etdim desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Moskvada tahsil ko'rayotganimda Chingiz Aytmatov bilan uchrashish, suhxbatlashish sharafiga muyassar bo'lganman.

To'lg'in Siddiq: - Qiziq, bu qanday sodir bo'lgandi?

Farid Usmon: - Tarix fanlari nomzodi Andijonlik Primqul aka Moskvada meni topib, katta muammoga duch kelganligi, yuqori tashkilotlarga arz qilaverib charchaganligi, endi najod faqat Chingiz Aytmatov bilan uchrashishda qolganligini aytdi. Jahonga mashhur yozuvchini topish va ularni uchrashtirish mening zimmamga yuklatildi. Ertasi kuni baxtli tasadif tufayli Chingiz og'ani topdim va u chindan ham muammoni hal etdi. Esimda biz masalani unga rus tilida tushuntirishga urinayotganimizda, - O'zbek tilida gapiravering, - dedi kulimsirab. Chingiz

Aytmatov o'qishlarim, ijodim xaqida so'rab, menga dalda berdi. U xaqda o'ylaganimda Hazrati Xizr alayhissalom yodimga keladi. Parvardigor egam o'zi odamlarga tufha etgan ana shunday ulug'lardan biri sifatida eslayman. U kishidagi soddalik, odamni bir lahzada maftun qilib oluvchi samimiylik meni lol qoldirgan.

To'lg'in Siddiq: - "Umid gulzori", "Navsiz navo", "Qadr kechasi" "Ul qaro ko'z bo'lmas", "Jon qushi" kabi lirik she'rlar serjilo g'azallaringiz jamlangan kitoblar mushtariylar uchun chinakam sovg'a bo'lgandi.

Farid Usmon: - Bir tomondan hayot bizni yashashga o'rgatsa, bir tomondan ustozlar bizlarga g'amxo'r bo'lishdi. Ancha-muncha ijod namunalarimiz nashr etilishi bahonasida poytaxt adabiy jaroyonida talay do'stlar orttirdim. Ularni noma-nom aytish kerak bo'lsa, ancha qog'oz to'ldirishingizga to'g'ri keladi. Intilishlarim zoya ketmadi. Respublika va viloyat gazetalari hamda jurnallarida chop etilgan qator she'rlarim ularning mahsulidir.

To'lg'in Siddiq: - Mustaqillik yillari ijodingiz yanada yuksaldi. Poytaxtning nufuzli nashriyotlarida "Husn devoni", "Jon qushi", "Ruh bulbuli" kabi she'r va g'azallar to'plami, "Yangi oy" nomli devon, "Shakllar qo'shig'i" dostoningiz nashr etildi. "Muhabbat o muhabbat!", "Qaylarga qochay Laylo" kabi nasriy asarlaringiz va bir qator tarixiy qissalaringiz muxlislaringizga taqdim etildi.

Farid Usmon: - G'azallarda nafis tavsif, maqtov, lirik qaxramonning tashqi qiyofasini mohirona chizib berish hukm suradi. Mening g'azallarim bir oz o'zgacha. Bu hayot voqeligini surati va siyrati, ichki paydo bo'lishi alomatidir deb o'ylayman. Ularda ijtimoiy xayotning turli qirralari, do'stlik, insonparvarlik, kibru-xavo, rost va yolg'on, jism va ruh, sevgi olami, falsaviy mushohadalar ustuvor. Mustaqilligimiz afzalliklarini tarannum etish bilan turli illatlarni ochib tashlamoqchi bo'laman.

Badiiy nasrda yaxshi ijod qilgan shoirlar talaygina. "Meni sev" deb nomlangan kitobimdan bir qator hikoyalar o'rin olgan. Oddiy bayon usulidan, goho falsafiy yoki ramziy usullardan foydalanganman. Tarixiy

xikoyalarimda o'tmishga oid aytilmagan, ochilmagan qirralarni topishga harakat qildim. Albatta, uning uchun o'z davrida sallomalar yozgan mutafakkirlar asarlarini sinchiklab o'qib ularni solishtirgach xulosalarimni qog'ozga tushirganman. Keyingi yillarda chop etilgan "Xonlar tarixi", "Navoiy tug'ilgan joy", Musulmon sayyohlar", Chingizxon ajdodlari", "Xondamir tarixi", Moxlaroyim gullari", "Muhammad Shayboniyxon qissasi" deb nomlangan qator kitoblarim fikrimning dalilidir.

To'lg'in Siddiq: - "Iblisning qaytishi" deb nomlangan kitobingizni Gyotening "Faust" asaridan ilhomlanib yozgansiz deb o'ylayman yoki yanglishdimmi?

Farid Usmon: - Haqu-nohaqliklarning mavjudligi bizni mulohazalarga chorlaydi. Donishmand Aziziddin Nasafiy "Shayton shayton shaklida bo'lgani uchun iflos va palid emas, balki bo'ysinmaslik, yovuzlik va yomonlikka xidoyat qilinishi uchun yomondir. Bu sifat odamda bo'lsa, odam ham iblis qiyofasida bo'lgani bois unga rahm bo'lmaydi, balki takabburlik, manmanlik va hasad tufayli haydalgandir. Bu sifatlar odamda bo'lsa, odam ham shu sifati tufayli iblisdir" – deb yozadi. Uning fikriga qo'shilmalikning iloji yo'q. Kitobxon asarni o'qir ekan, o'zidagi va boshqalardagi xusurlarni anglab olishi va mulohaza yuritishiga umid qilaman.

To'lg'in Siddiq: - She'r va g'azallaringizni taniqli xonandalar qo'shiq qilib kuylashgan. Bunga munosabatingiz qanday?

Farid Usmon: - Bir so'z bilan aytsam ijobiy. Meyoriga yetkazib ijro etilgan qo'shiq tufayli she'r va g'azallarim odamlar yuragidan joy oldi. Mushtariylarga O'zbekiston xalq artistlari Nuriddin Xamroqulov, Zamira Suyunova, xushovoz xonanda Yahyo Mo'minovlar ijrosidagi "Sandadur", "Sochlaringda tun uyqusi", "Oq qush", "Shirinliging shakarliging", "Yor bilan", "O'shal damlar" kabi qo'shiqlar ayniqsa manzur bo'lmoqda.

To'lg'in Siddiq: - Suhbat uchun rahmat! Qalamingiz charchamasin.

ISTE'DODNING BETAKROR QIRRALARI

*Jozibada, zukkolikda tengsizdirlar,
Hayosida, ibosida, sha'ni turar.
Boqsa yana ko'rging kelar jamollari,
Dunyoda tengsizdir o'zbek ayollari*

Ha, o'zbek ayoli, dunyoda tengsizdir. U uy bekasi, tarbiyachi, olim, muallim. U bir qo'li bilan beshikni, bir qo'li bilan dunyoni tebratadi. U jozibakor, latofatli, tengsiz go'zaldir. Mana shunday o'zbek ayollaridan biri – ziyokor kutubxonachi, shoira, “Ummon” adabiy klubi rahbari Ro'zixon Iminovadir.



Iminova Ro'zixon 1955-yil 13-mayda Asaka shahrida ishchi oilasida tug'ilgan. Iminova Ro'zixon 1962-1972-yillarda shahardagi 6-maktabda o'qigan. 1974-yilda Asaka shahridagi pedagogika bilim yurtini tamomlagach shahardagi 4-o'rta maktabda rasm-chizmachilik fani o'qituvchisi, 1976-yildan shahar markazlashgan kutubxonalar tarmog'iga qarashli 3-kutubxonada kutubxonachi, 2001-2010-yillarda esa Asaka pedagogika kolleji axborot-resurs markazi qiroatxonasida

kutubxonachi vazifasida ishlagan.

2005-yilda nafaqaga chiqqan shoira ijod ummoni ichra suzmoqda. Turgan gapki kitoblar ko'ngil mamlakatiga eltadi. Ko'ngil saltanatidan she'riyat sarhadlariga o'tish oson kechadi. Albatta shoirada ham shunday kechgan.

Quyida keng kitobxonlar ommasi e'tiboriga havola etilayotgan “Iste'dodning betakror qirralari” mavzusidagi bibliografik sharhda Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi kitob fondidan o'rin olgan Iminova Ro'zixonni qalamiga mansub kitob va vaqtli matbuot nashrlari bilan tanishtiriladi.

BIR HOVUCH NUR...

Iminova Ro'zixon ijodkor sifatida bir nechta kitoblar muallifi. Uning ijod namunalari “Asaka navosi”, “Asaka”, “Ko'nglim gulga payvasta”, “Etti yulduz”, to'plamlarida bosilgan. Ilk mustaqil ijod mahsullari 2016-yilda chop etilgan “Hayot go'zal” nomli she'riy to'plamdan o'rin olgan. Shuningdek, shoiraning she'rlari Turkiyaning Istanbul shahrida turk tilidagi “She'r ifori” to'plamida ham chop etilgan.

Ish faoliyati davrida bir qancha fahriy yorliqlar hamda 2016-yilda “O'zbekiston Mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

Iminova Ro'zixon Respublikada o'tkazilgan “Mening ulug' Vatanim” nomli teletanlovda, O'zbekiston “Yoshlar” telekanalida o'tkazilgan “Vatanparvar” hamda O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganishga va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bag'ishlab o'tkazilgan “O'zbekiston vatanim mening” ko'rik-tanlovlarida g'olib bo'lib, Respublika bo'ylab sayyohlik yo'llanmasi bilan taqdirlangan.

Shoiraning xotin-qizlar va yoshlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi faoliyati aks ettirilgan maqola va hikoyalari

“Oltin qalam”, “7x7”, “Oila va jamiyat”, “Vodiy gavhari”, “Bekajon”, “Erudit”, “Andijonnoma”, “Iqbol”, “Kelajak”, “Asaka hayoti” hamda “Adolat ko'zgusi” kabi o'nlab gazeta-jurnallarda muntazam bosilib turadi.

Ikki nafar farzand, to'rt nabiraning buvajonisi, shoiramiz viloyat, shahar va mahalladagi o'tkaziladigan barcha madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol qatnashadi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyat bo'limi qoshida ijodkor Ro'zixon Iminova rahbarligida “Ummon” adabiy klubi bir necha yillardan buyon faoliyat yuritib keladi. Klub a'zolarini viloyatda yashab, ijod qilayotgan turli yoshdagi, turli kasb-kor egalari bo'lgan qalamkashlar tashkil etadi. 2015-yildan beri o'tgan vaqt mobaynida adabiy klub a'zolarining ijodlari 30 dan ortiq to'plamlar va mustaqil nazmiy-nasriy kitoblar orqali zukko, sinchkov o'quvchilar e'tiboriga havola etildi.

RO'ZIXON IMINOVA IJODIGA BIR NAZAR

Ijodkorning 2024-yilda kitobxonlar hukmiga havola qilingan “Ummon ohanrabosi” she'riy to'plami ham ijod zavqi bilan yashayotgan qalamkashlarning dil to'g'ri, qalb qo'ridan yaralgan haroratli satrlardan iborat she'rlaridan tashkil topgan. O'ziga xos go'zal ijod namunalari nozik ta'b muxlislariga, albatta manzur bo'ladi.



Iminova Ro'zixon // Ummon ohanrabosi: Saylanma. – Toshkent : Tafakkur tamaddun, 2024. – B. 3-25.

Ushbu “Armonlarga to'ldirma, dunyo” deb nomlangan she'riy to'plamda o'lkamiz ijodkorlarining eng sara she'r va g'azallari o'rin olgan bo'lib, unda shoiraning qalamiga mansub “Sabolar aytsin” rukni ostida 20 nomdagi ijod mahsuli yoritilgan.




Iminova Ro'zixon. Sabolar aytsin // Armonlarga to'ldirma dunyo: she'r va g'azallar. – Namangan: Vodiy media, 2021. – B. 3-21.

Ro'zixon Iminova she'rlaridagi mavzular xilma-xil. Vatan, istiqlol, tarixdagi ulug' siymolarga bag'ishlangan, tabiatni tarannum etuvchi bitiklari ham bor. U butun hayotini kutubxonachilikka bag'ishlab, odamlarga ziyonur ulashgan inson umrning keksalik pallasiga o'tgach ham bu savobli ishni qo'ymadida. “Hayot go'zal” deb nomlangan to'plamdan shoiraning bir hovuch qalb nuri – sizga arg'umon.



Iminova Ro'zixon. Hayot go'zal : she'rlar / muharrir D. Jumaboyev. – Toshkent: Namangan nashriyoti, 2016. – 90 b.

Shoira salkam 40 yil kutubxonachilik sohasida faoliyat olib borgan va o'zi ham tom ma'nodagi ziyokor, chinakam kitobsevar inson. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlanib chop etilgan "Etti yulduz" to'plamidan joy olgan "Atirgulning raqsi" ruknida Ro'zixon Iminovanning ijod namunalari joy olgan. To'plamdan ona, Vatan, tabiat va baxt mavzusidagi she'rlari siz azizlarga tufa qilingan.



Iminova Ro'zixon. Atirgulning raqsi // Etti yulduz: she'rlar to'plami / muharrir D. Jumaboev. – Toshkent: Namangan nashriyoti, 2016. – B. 90-132.

Aytib o'tilganidek ijodkor ziyo maskani bo'lmish so'lim Asakaning tarmoq kutubxonasida aholiga ziyo ulashgan, hozirda esa nafaqada. O'sha vaqtda ham qalam tebratgan Ro'zixon Iminova viloyat kutubxonasining 100 yilligi munosabati bilan nashr qilingan to'plamga o'z minnatdorchiligini she'rlari bilan izhor etgan. O'quvchilar esa buni juda iliqlik bilan kutib olishgan.

Iminova, Ro'zixon. Rahbar islohotlar tayanchi // Yuz bilan yuzlashgan ziyo maskani. – Andijon. – 2007. – B. 61-62.

Shoira o'z ijodiy faoliyati bilan ko'plab muxlislar orttirgan. Ularni nazariga tushgan. Unga o'sha vaqtda asakalik ijodkor ustozlar – Toshtemir Mamadaliyev va Halimaxon

Qoraboyevalar sababchi bo'lganlar. Jurnalistika sohasida ham uncha muncha yutuqlarga erishgan shoira ko'plab viloyat va tumanda o'tkazilgan tanlov g'olibi bo'lgan. Quyidagi maqola esa "Asaka oqshomi" gazetasining muharriri Ro'zixon Iminovanning ijod yo'li haqida qisqacha hikoya qiladi.

Alijonova, M. Fidoyi ziyokor: Ro'zixon Iminova // Asaka oqshomi. – 2024. – 28 sent. – B. 2.

SHOIRA IJODI MATBUOT NASHRLARIDA

Iminova, R. Bo'lmasa : [she'r] // Rahmonov, S. Asaka. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 93.

Iminova, R. Mangu yashab qolgin qalbmida, bahor : [she'r] // Iqbol. – 2025. – 27 fevr. – B. 3.

Iminova, R. Ayol sha'ni : [hikoya] // Asaka hayoti. – 2025. – 28 yanv. – B. 3.

Iminova, R. Qayta tug'ilgan nashr : "Asaka oqshomi" gazetasi yana nashr qilina boshladi // Asaka oqshomi. – 2024. – 3 may. – B. 2.

Iminova, R. Bir kishi gaplashadigan til : [dunyo tillari] // Asaka oqshomi. – 2024. – 3 may. – B. 14.

Iminova, R. Olovlardan omon chiqqanlar : [Asaka tumani Toshtepa qishlog'ilik o'g'lon A. Abdurasulov haqida] // Asaka oqshomi. – 2024. – 11 may. – B. 4.

Iminova, R. To'y qarindoshda, g'alvasi bizni boshda : [muharrir minbari] // Asaka oqshomi. – 2024. – 18 may. – B. 2.

Iminova, R. Abdulla Qodiriyning taxalluslari: [muharrir minbari] // Asaka oqshomi. – 2024. – 25 may. – B. 2.

Iminova, R. Yana bir obod maskan : [tumanning "Umid" qishlog'i haqida] // Asaka oqshomi. – 2024. – 25 may. – B. 4.

***Andijon viloyat axborot-kutubxona markazi
O'lkashunoslik axborotlari sektori
mutaxassisi Z. Shahobiddinova.***

IZLARI KO‘ZIMGA TO‘TIYO



Zebo Asronova,
Buloqboishi Axborot-kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati rahbari

...2016 yilning mart oyida o‘zim ishlayotgan ta‘lim maskanidan Toshkent shahridagi Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish institutiga o‘qishga bordim. O‘qish nihoyasida bizni “Zangi ota” ziyoratgohiga va qatag‘on qurbonlari “Shahidlar xotirasi maydoni”ga sayohatga olib borishdi. Muzey zalida bizni xodimlar xushmomilalik bilan kutib olishdi, eksponatlar bilan tanishtirdilar. Bizga gid hamrohlik qildi. Har bir eksponatning o‘z tarixi borligi bizni yanada qiziqtirdi.

Bu yerda begunoh otilgan insonlar taqdiri haqida eshitganimdan keyin o‘z bobom Soipov Asronqulotaning taqdirini ma‘lum qilganini, u qacda vafot etganini bilishga qiziqishim uyg‘ondi, chunki bobom ham qatag‘onga uchragan edi. Men muzey xodimidan bobom haqida ma‘lumot olish uchun kimga murojaat qilishimni so‘radim. Shunda muzey xodimi menga bobom to‘g‘risidagi bilgan ma‘lumotlarimni yozib ariza qoldirishimni, ishlab turgan mobil aloqa telefon raqamini ham yozib qo‘yishimni tushuntirdi.

Men “Shahidlar xotirasi maydoni” muzeyi direktori Baxtiyor Xasanovga quyidagi ma‘lumotlarni aniq bayon qilib qoldirdim.

Bobom Soipov Asronqul 1893 yilda hozirgi Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati, Aravon tumani Chekabod qishlog‘ining Ko‘kalaposh mahallasida tug‘ilgan. (O‘sha vaqtda O‘zbekiston va Qirg‘iziston respublikasi oralig‘ida chegara bo‘lmagan). Bobomning otasi Soyib hoji o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan boylaridan bo‘lib, ilmi, salohiyatli bo‘lgan. Kolxozlashtirish davrida Soyibhojining bir uyur yilqilari, qoramollari va qo‘ylari, qimmatbaho buyumlari hukumat tomonidan tortib olinadi. Uy-joylaridan ham ayriladi. Shunda Soyibhoji oila-a‘zolari bilan hozirgi Marhamat tumanidagi qarindoshlari uyidan panohtopadi. Butun mol-mulkidan ayrilib, xorliklarga uchragan Soyibhoji kasal bo‘lib vafot etadi. O‘g‘li Asronqul ham o‘qimishli, zukko, so‘zga chechan bo‘lganligi uchun ko‘pchilik orasida ajralib turgan. U odamlarni o‘qimishli bo‘lishini astoydil xohlagan.

Shu tufayli g'alamislar orqali chaquvga uchrab, Andijon viloyati hududidagi chekka Savay sovhoziga surgun qilinadi, u yerda paxta dalasida ishlaydi. Bobom bilimga ega bo'lgani uchun ko'p kitob o'qiydi va kitoblar saqlaydi.

Bobom dalada g'o'za sug'orayotganda uyiga kirib tintuv o'tkazisadi va kitoblarni topib dalil sifatida oladilar. "dehqonlarni kurash yo'liga boshlashi mumkin" degan shubha bilan chaquv qilinadi va 1938 yilda bobomni hibsga oladilar. Bobom surgun qilinganmi, otuvga hukm qilinganmi bilmaymiz...

Muzey xodimlaridan bu ma'lumotlarni o'rganib aniqlash mumkin bo'lsa, menga xabar berishlarini iltimos qildim. O'qishni tamomlab, poytaxtdan uyga qaytdim. Oradan bir kun o'tib tushlik payti muzeyning katta ilmiy xodimi Bahromjon Irzaevdan menga telefon qo'ng'irog'i bo'ldi. Bahromjon bobom haqida topilgan ma'lumotlarni birma-bir aytar ekan, ko'z oldimga bobomning hayotga chanqoq, ziyoli chehrasi keldi. Bobom 1938 yilda hozirgi Andijon Davlat universiteti atrofidagi joyda begunoh otilganini eshitganimda ko'zimga shashqator yosh keldi. 1956 yilda ko'plab begunoh qatag'on qurbonlari qatorida Bobom ham oqlangan.

Bahromjon Irzaev mendan, bobongizni surati bormi, deb so'radi. Men surati yo'q dedim. Chunki ayollari, ya'ni buvimizga va farzandlariga yomonlik bo'lmasligi uchun suratlari va kitoblarini yashirganini bironvga aytmagan. Bahromjon menga bobomning protokoldagi suratlarini xat orqali jo'natishini aytdi. Bu uzoq muddat kutilgan yangilikdan hamma qarindoshlarimiz uyida xursandchilik boshlandi. Qani, hozir bobomning qadam izlarini topsak, hammamiz ko'zimizga to'tiyolib qilib surtardik. Afsuski bu armonga aylandi.

Mening muzey xodimlariga yozgan arizamda bir xalol, mehnatkash, musulmon, iymon - e'tiqodli sodda insonning taqdiri haqida bilish, uni necha o'n yillar davomida kutgan jigarbandlarining otash bo'lib yongan dilnomasi yozilgan edi. Muzey xodimlari bu dilnomada begunoh bir millat vakilining ayanchli taqdiri aniqlanishi muhimligini katta bir ma'suliyat bilan his qildilar. Men muzey direktori Baxtiyor

Xasanovga, katta ilmiy xodim Bahromjon Irzaevga barcha oila a'zolarimiz nomidan minnatdorchiligimizni bildiram.

Bobomning ikki ayollari bo'lib, ulardan besh nafar o'g'il farzand qolgan edi. Enaxon buvimizdan Xusanboy (mening otam), Ortig'ali, Umarjon, Esonboy. Ikkinchi xotinidan Yusufjon ismli o'g'li bo'lgan. Bobom qamalganda Yusuf amakim 3 yoshda bo'lgan.

Uch kundan keyin bobomning kim ekanligi, taqdiri nima bo'lgani haqida menga Toshkentdan xat keldi. Xatni uyga olib kelsam, turmush o'rtog'im tomorqamizda beda o'rayotgan ekan. Aprelning ilk kunlari edi. Xatni turmush o'rtog'imga ko'rsatdim. U xatni o'qiyaptiyu ko'zlaridan milt-milt yosh oqadi. Xatni qaynonam va farzandlarimga o'qib berdim. "Nima bo'lganda ham bobomning daragi chiqdiyu, ruhlari shod bo'ladi", deb o'zimga-o'zim tasalli berardim.

Toshkentdan kelgan xatni Sizlarga havola qilaman.

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi 69 uy
Tel + (998-71) 244 -29-40
№ 9 2016 yil 13 aprel

Andijon viloyati, Buloqboshi
Tumani, Chaqar ko'cha, 2 uyda
istiqomat qiluvchi Z.Asrinovaga

Sizning "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi rahbariyatiga yo'llagan xatingizga javoban shuni ma'lum qilamizki, qatag'on davrini begunoh jabranuvchilardan bo'lgan Soibxojev Asron haqida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi. Otasi Soibhoji Qirg'izistonning Aravon tumani Chekobod qishlog'ida katta yer, bog'lariga ega davlatmand inson edi. Asronqul bobo 1893 yilda tug'ilgan va o'ziga qarashli bo'lgan yerda dehqonchilik bilan shug'ullangan. 1929 yilda quloq qilinib, bor mulklaridan ajraladi. 1931 yilda davlatning paxta planini bajarmagan degan ayb bilan qamoqqa olingan va 2 yil qamoq jazosini O'shda o'tagan. Shundan so'ng sobiq quloqlar

uchun tashkil etilgan Savay (sobiq A.Ikromov) qishlog'iga ko'chiriladi. U Savay qishlog'i 9-paxta sovxozi 6 brigada dalasida oddiy ishchi bo'lib ishlagan. A.Soibov mehnatkash, o'z ishini ustasi sifatida bir necha bor mukofotlangan edi. Shunga qaramay, 1938 yil 16 yanvarda Asron Soibovga sovet davlatiga qarshi targ'ibot olib borgan degan ayb qo'yildi. O'zSSR jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qismi bilan qamoqqa olingan.

A.Soipov qamoqqa olinganda xotini Enaxon Qayumova 35 yosh, yana bir ayoli (37 yosh), farzandlari Xusanboy (14 yosh), Oliyaxon (12 yosh), Umarqul (10 yosh), Ortiqboy (8 yosh), Yusuf (5 yosh) yana 3 yashar o'g'li va 2 yoshli qizlari ortidan qon yig'lab qolganlar. Garchi ishlagan joyidan maqtoqli ma'lumotnomalar kelsada, u stalincha qatag'on mashinasidan qutila olmadi. Aksincha 1925 yillarda pochchasi Sulton ponsad va Isman ponsadlar qo'lida qo'rboshi bo'lgan degan tuhmat qo'shilib, 1938 yil 7 fevralda Andijon viloyat NKVD si qoshidagi mash'um uchlik tomonidan otuvga hukm qilingan. Hukm 1938 yilning 15 martida Andijonda ijro etilgan. 1967 yil uning ishi qayta ko'rilganda guvohlar A.Soipovning mehnatkash, halol va xalqparvar inson bo'lganligini ta'kidlashgan.

1968 yil 26 yanvarda Andijon vloyati Sudi Prezidiumi qarori asosida A.Soipovning aybsizligi tan olingan va oqlangan. Sizga bobongiz A.Soibovning surati ham yuborilmoqda.



Hurmat bilan

Jamoat fondi raisi: **B.Hasanov**


Xatni Marhamatga ota uyimga olib bordim. Otam, onam bir amakilarim- barchasi bu vaqtgacha olamdan o'tgan edi. Lekin ularning farzandlari hayot, xatni o'qib juda hayajonlandilar. Bobomning farzandlaridan faqat Yusufjon amakim tirik, u Quvada yashaydi.

Ukam Abduvahobga xatni berib, Quvaga, amakimnikiga olib borishni aytdim. Iltimos yotig'i bilan tushuntiring dedim. Endi Quvadagi holatni ko'ring. Yusufjon amakim umrida ko'rmagan otasining rasmini ko'rib, "Yusufjon otasi qamalganda 3 yoshda edi" degan jummalarni o'qib ho'ngrab yig'labdi. Amakimning 6 qizi va 2 o'g'li bor. Darhol ularni chaqirib, xursandchilikni yetkazibdi. Yusufjon amakim menga telefon orqali uzoq duo qildi. "Menga hech kim qilmagan yaxshilikni qildingiz, otamni qaytarib berdingiz" dedi.

Ma'shum tuzum tufayli bobomning hayoti ana shunday ayanchli tarzda yakun topgan edi.



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda ham kuzating!



Kutubxona - bu o'quvchiga axborot resurslariga tezkor kirish imkonini, o'zaro ta'sir va muloqotni taqdim etuvchi axborot makonidir



MUALLIFLAR DIQQATIGA!

“BOBUR KUTUBXONASI” JURNALIDA MAQOLALARNI CHOP ETISH SHARTLARI

Chop etish uchun yuborilgan material yangi va boshqa nashrlarda chop etilmagan bo'lishi hamda jurnal yo'nalishiga mos kelishi kerak.

Tahririyat material jurnal yo'nalishiga mos kelishi to'g'risida mustaqil qaror chiqaradi va chop etishni rad qilish sabablarini tushuntirmaslik huquqiga ega.

Mualliflar to'g'risida ma'lumotlar:

Ismi, familiyasi, otasining ismi, asosiy ish (o'qish) joyi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi;

Asosiy ish (o'qish) joyining pochta manzili; telefon raqamlari va elektron pochta.

Maqolaning tuzilishi:

Nomi: o'zbek, rus tillarida 8 so'zdan ko'p bo'lmasligi.

Maqola matni:

Kirish: masala (muammo)ning qo'yilishi, dolzarbligi, maqsadi, maqolaning tuzilishini tushuntirish.

Maqolani sahifalashtirish

Shrift va hajmi: MS word (.doc yoki .docx) formatida, Arial (11 pt.) shriftida, 1,15 interval bilan. Hajmi 2-8 sahifa oralig'ida yoki 3000 dan 20000 belgigacha bo'lishi lozim. Maqoladagi ma'lumotlar qaysi manbadan olinganligi (ssilka) ko'rsatilishi shart.

Grafik, chizma va jadvallar: Excel formatida, suratlar *.jpg, *.png formatida alohida faylda yuborilishi shart.



ПРИГЛАШАЕМ К СОТРУДНИЧЕСТВУ

Нашим автором может стать любой человек, профессия или увлечение которого связаны с книгой, с библиотекой.

Если вы решили отправить нам материал для размещения в журнале, то, прежде всего, необходимо проверить соответствие его следующим пунктам:

Материал представляется на одном из языков: узбекском или русском.

Он должен содержать сведения об авторе: имя, отчество и фамилию, место жительства, должность и место работы, контакт (телефон / электронная почта).

Название статьи не должно состоять из более, чем 6 слов с предлогами.

Материал не должен иметь менее 2 и более 6 страниц и быть ранее опубликованным или представленным в другом СМИ.

При обнаружении нарушения данного условия, материал снимается с опубликования.

Файл с материалом должен быть представлен в формате документа Microsoft Word, при этом рисунки и таблицы размещаются в тексте после ссылок на них, т. е. вся информация должна быть в одном файле. Статьи и другие материалы, представленные в редакцию, не возвращаются.

Шрифт текста: Arial, размер шрифта 11, межстрочный интервал 1,15.

Все страницы должны быть пронумерованы, иллюстрации, графики и таблицы расположены в соответствующих местах в тексте.

Каждый рисунок, график, таблица должны быть дополнительно представлены отдельным файлом в формате: *.jpg, *.png.



Kelgusi sonda: В следующем номере:



- ▶ Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish tendensiyalari
- ▶ О поэте и поэзии
- ▶ O'tkan kunlar – Yurakni uyg'otgan roman
- ▶ XXI - asr bibliografining vazifasi
- ▶ Bolalar uchun ko'rgazma tayyorlash yuzasidan tavsiyanoma